ZAYNIDDIN SANAKULOV

# LEKSIKOLOGIYA
## (nemischa-o'zbekcha sifat yasovchi affikslar o'quv lug'ati)

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач_______________

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSTIYA
VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Z.I. SANAKULOV, SH.D. RAZAKOVA

# LEKSIKOLOGIYA
# (nemischa-o'zbekcha sifat yasovchi affikslar o'quv lug'ati)

## O'QUV QO'LLANMA

Chirchik - 2023

UO'K 81'373;811.112.2
KBK 81-3;81.2Нем
S-56

**Sanakulov Z.I., Razakova Sh.D. /Leksikologiya (nemischa o'zbekcha sifat yasovchi affikslar o'quv lug'ati)/** O'qu qo'llanmasi. / "City of book" - Chirchik.: 2023. –92 bet.

MAS'UL MUHARRIR:
Filologiya fanlari nomzodi, professor – **X. Raximov**

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| **S.X.Nazarov** | Nizomiy nomidagi TDPU Yevropa till kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yich falsafa doktori, dotsent |
| **D.B. Otajonova** | CHDPU, Fakultetlararo chet tillar kafedras mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa dokto (PhD) |

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyal vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'iga asosan o'q qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-780-26-4

© "City of book", 20
© Z.I. Sanakulov, 20

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
A...ROT RESURS MARKAZI



**Annotatsiya.** Hozirgi kunda xorijiy tillar ta'limiga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib borayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Boshqa chet tillar qatorida nemis tili mutaxassisilik fanlarini o'qitish va o'rganishga mo'ljallangan turli o'quv adabiyotlari chop etilmoqda. Ular ichida lug'atlar, xususan, o'quv lug'atlari o'rganilayotgan xorijiy til nazariy va qiyosiy aspektlarini (qiyosiy tipologiya, nazariy grammatika, leksikologiya, leksikografiya va tarjimashunoslik kabi fanlar mazmunida) o'rganishda yordamchi o'quv adabiyoti sifatida foydalanish samarali hisoblanadi.

Mazkur o'quv qo'llanma 60111800-Xorijiy til va adabiyoti: nemis tili (shuningdek, 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish: nemis tili, 60230200-Tarjima nazariyasi va amaliyoti: nemis tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, "Leksikologiya", "Qiyosiy tipologiya", "Nazariy grammatika", "Leksikografiya" va "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kabi fanlarni o'qitishda, talabalr mustaqil ta'limini tashkil etishda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, nemis va o'zbek tillarini qiyosiy aspektda o'rganishga bag'ishlangan bakalavriyat va magistrlik dissertatsiyalari hamda ilmiy tadqiqot ishlarini tayyorlashda, qolaversa, lug'atlar tuzishda foydalanish mumkin.

**Аннотация.** В настоящее время мы являемся свидетелями того, что внимание к изучению иностранных языков возрастает день ото дня. Наряду с другими языками издается различная учебная литература и на немецком языке, предназначенная для преподавания и изучения немецкого языка. Среди них словари, в частности, учебные словари, которые эффективно используются в качестве вспомогательной учебной литературы при изучении теоретических и сопоставительных аспектов изучаемого иностранного языка (в рамках содержания таких предметов, как сравнительная типология, теоретическая грамматика, лексикология, лексикография и перевод исследования)

Данный пособие предназначено для изучающих иностранный язык и литературу: немецкий язык (а также филологию и преподавание иностранных языков: немецкий язык, теорию и практику перевода: немецкий язык), рекомендуется использовать его при обучении таким

предметам, как «Лексикология», «Сравнительная типология», «Теоретическая грамматика», «Лексикография» и «Переводоведение», а также для студентов в качестве самостоятельного обучения. Также он может быть использован при написании бакалаврских и магистерских диссертаций и научно-исследовательских работ, посвященных изучению немецкого и узбекского языков в сопоставительном аспекте, а также при составлении словарей.

**Abstract.** Nowadays, we are witnessing that the attention to the education of foreign languages is increasing day by day. Among other foreign languages, various educational literature designed for teaching and learning German language is being published. Among them, it is effective to use dictionaries, especially educational dictionaries, as auxiliary educational literature in the study of theoretical and comparative aspects of the studied foreign language (within the content of subjects such as comparative typology, theoretical grammar, lexicology, lexicography and translation studies).

This manual is intended for students of Foreign Language and Literature: German (as well as Philology and Language Teaching: German, Theory and Practice of Translation: German), and it is recommended to use it in teaching such subjects as "Lexicology", "Comparative Typology", "Theoretical Grammar", "Lexicography" and "Translation Studies" and in organizing students' independent education. Also, it can be used in the preparation of bachelor's and master's dissertations and scientific research works devoted to the study of German and Uzbek languages in a comparative aspect, as well as in the compilation of dictionaries.



## SO'Z BOSHI

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarida nemsi tilini o'rganuvchilar, xususan 60111800-Xorijiy til va adabiyoti: nemis tili yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan va mazkur ta'lim yo'nalishining "Leksikologiya", "Qiyosiy tipologiya", "Nazariy grammatika", "Leksikografiya" va "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kabi fanlar o'quv dasturiga asosan ishlab chiqilgan.

O'quv qo'llanma o'zbek lug'atchiligining «So'z yasalishi» tizimida o'zbek va nemis tillari doirasida yaratilgan dastlabki lug'at sanaladi. Unda sifat leksemalari yasovchi 170 ga yaqin birliklar qamrab olinib, har bir affiks alohida lemma sifatida berilgan holda misollar yordamida yoritilgan. Qo'llanma maqolalari yetakchi leksikografik olimlarning ilmiy xulosalariga tayangan holda hamda mavjud leksikografik makro- va mikrostrukturaviy tamoyillar asosida tuzilgan.

O'quv qo'llanmada muqobil tarjimalar bilan bir qatorda ushbu birliklarga tegishli muhim lingvistik ma'lumotlar, jumladan, ularning turi, mahsuldorlik darajasi, kelib chiqishi hamda ular yordamida hosil qilingan leksemalarning berilishi leksikografik manbaning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Nemis va o'zbek tillari ishtirokida so'z yasovchi elementlarga bag'ishlangan lug'atlarning mavjud emasligi, bir tarafdan, mazkur amaliy ishning yaratilishida ma'lum qiyinchililarni keltirib chiqargan bo'lsa, boshqa tarafdan, bizni dolzarb va bahsli mavzuga qo'l urishimizga, bu orqali esa mavjud leksikografik bo'shliqni ma'lum darajada to'ldirishga ruhlantirdi.

Ushbu o'quv qo'llanmadan oliy o'quv yurtlari mos ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrant va doktorantlar, shuningdek, professor-o'qituvchilar foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanma foydalanuvchilari tomonidan bildirilgan qimmatli fikr va mulohazalar, shuningdek, lug'atni takomillashtirish borasida bildiriladigan takliflardan muallif mamnun bo'lishini qayd etish joizdir.

## LUG'ATDAN FOYDALANISH UCHUN KO'RSATMALAR

**I. Lemma**[1]**.** Lemmalar lug'atda alfavit tartibida joylashtirilgan bo'lib, bunda ular (**-a·bel**) bo'g'inlarga ajratilishi qalin nuqta (·) orqali va ular yordamida hosil qilingan yasama so'zlar ***yarimqalin qiya bosma –kursiv*** harflar bilan ajratib yozilgan. Lemmaga tegishli qo'shimcha ma'lumotlar (*kammahsul, urg'uli, sermahsul* va sh.k.) kursiv harflarda, tarjimalar va ularning sinonimlari esa qora och rangda berilgan. Lemmalar so'z yasovchi elementlardan tarkib topganligi sababli, dastavval, o'sha affiksning ma'nosi, so'ngra, u bilan hosil qilingan yasama so'zlar tarjimalari bilan berilgan. Masalan:

**al·lo-**, *unlilar oldidan* **all-** [al-] *shaklida, mahsulsiz* o'zlashma prefiks <*grek.*>

sifatlarga o'zgaruvchanlik, xilma-xillik ma'nosini beradi; ***allochromatisch*** [-k-] alloxromatik □ chromatisch, ***allochton*** *geol.* alloxtonnik □ autochton, ***allogam*** kzndalang changlanadigan/urug'lanadigan.

Ushbu yasama so'zlar tarjimalari bir so'z yoki mazmunan bir-biriga yaqin sinonimlar orqali ifodalangan.

Bir necha ma'no qatoriga ega bo'lgan affiks *ko'p ma'noli* deya qayd etilgan va uning ma'nolari bir-biridan arab raqami bilan ajratilgan.

**-al** *urg'uli, kammahsul* suffiks

1. Kim/nimaningdir holatida, tarzida, kim/nima kabi/singari ≈ -artig, -haft; ***horizontal*** gorizantal, ***katastrophal*** falokatli, ***normal*** normal, tabiiy, mo'tadil; odatiy, ***triumphal*** zafar (g'alaba)ga oid, zafar ...; g'olibona
2. *Darajasiz*; -dan kelib chiqib, -ga tayanib, -ga oid; ***formal*** formaga oid, formal; rasmiy, ***hormonal*** gormonal, gormon... ***kolonial*** mustamlakachilikka va mustamlakalarga oid kolonial; mustamlaka...; mustamlakachilik...; koloniya (qaram) bo'lgan, mustamlaka; qaram, ***national*** millatga tegishli, milliy, ***regional*** hududga oid; hududiy...

So'z yasovchi elementlar turlarini farqlashda M.D.Stepanova («Slovar slovoobrazovatelnых elementov nemeskogo yazыka», Moskva: Russkiy yazыk, 1979) tomonidan taqdim etilgan klassifikatsiyaga tayanildi, xususan, mazkur lug'atda ***suffiks, yarimsuffiks, o'zlashma suffiks, murakkab suffiks, prefiks, yarimprefiks, o'zlashma prefiks, murakkab prefiks, murakkab sifatning birinchi chastotali komponenti*** kabi affiks turlari farqlandi. Ular lemmadan keyin odatiy harflarda berilgan:

**al·ler-** *urg'uli, sermahsul* yarim prefiks, *dealik so'zl. usl.*; Orttirma daraja mazmunini yanada kuchaytirish, orttirish uchun ishlatiladi; ***allerbest***- eng yaxshi

Muayyan affiksdan hosil qilingan leksemalarning so'z yasalish asosi □ belgisidan keyin berilgan. Agar mazkur belgi mavjud bo'lmasa, ushbu leksema unikal asos hisoblanadi. Masalan:

**-a·bel** *fe'llardan (asosan –ieren bilan tugagan)keyin qo'shiladi, urg'uli, kammahsul* o'zlashma suffiks <*lot. -fr.*>

Nimadir mumkin, imkonli yoki kim/nimadir biror narsa uchun yaroqliligini ifodalaydi ≈ -bar; ***akzeptabel*** maqbul, ma'qul □ Akzept *n*, ***deklinabel*** turlanuvchi □ Deklination *f*, ≈ deklinierbar ↔ indeklinabel <ein Wort>, ***transportabel*** <ein Fernsehapparat> ko'chma, ko'chiriladigan □ Transport *m*, ***praktikabel*** <eine Lösung, eine Methode> amaliy, amalga oshirsa bo'ladigan □ Praktik *f*, ***reparabel*** tuzatib (ta'mirlab) bo'ladigan □ reparieren, ≈ reparierbar ↔ irreparabel <ein Schaden>

**II. Semantik xususiyatlar.** Lemma sinonimga ega bo'lsa, sinonimlar ≈ belgisi, uning antonimi esa ↔ belgisi orqali ifodalangan:

**a-** *kammahsul prefiks*; O'zidan keyin kelgan sifatning antonimi, qarama-qarshi ma'nosini bildiradi ≈ un-; ***ahistorisch*** <eine Betrachtungsweise> notarixiy, tarixiy emas...

**-a·bel** *fe'llardan (asosan –ieren bilan tugagan)keyin qo'shiladi, urg'uli, kammahsul* suffiks; Nimadir mumkin, imkonli yoki

[1] Кўпчилик манбалар(Беньяминов Я., Саидов С. Немисча-ўзбекча ўқув луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1991, И... Ю., Каримов Ш. Немисча-ўзбекча, ўзбекча-немисча луғат. –Т.: Академнашр, 2020)да ушбу тушунча «... термини орқали ифодаланса-да, илмий ишимиз икки тилли луғатларга бағишлангани сабабли ҳам... иккала тил доирасида тушунарли терминлар қўлланиши лозимлиги нуқтаи назаридан халқаро ... саналган «лемма»дан фойдаланиш ўринлидир.

kim/nimadir biror narsa uchun yaroqli ekanligini ifodalaydi -bar; ***akzeptabel*** maqbul, ma'qul, ***deklinabel*** turlanuvchi deklinierbar ↔ indeklinabel <ein Wort> turlanmaydigan.

Lemma yordamida hosil qilingan yasama so'zlarning pragmatik xususiyatini yoritish maqsadida <...> belgisida ushbu leksema bilan so'z birikmasi hosil qilinishi mumkin bo'lgan so'zlar berilgan:

**-a·bel** ... ***deklinabel*** turlanuvchi ≈ deklinierbar ↔ indeklinabel <ein Wort> turlanmaydigan, ***transportabel*** <ein Fernsehapparat> ko'chma, ko'chiriladigan, ***praktikabel*** <eine Lösung, eine Methode> amaliy, amalga oshirsa bo'ladigan

Lemma maqolasiga kiritilmagan qo'shimcha ma'lumotlar || Izoh: shaklida berilgan:

**a-** *kammahsul* prefiks; O'zidan keyin kelgan sifatning antonimi, qarama-qarshi ma'nosini bildiradi ≈ un-; ***asymmetrisch*** <eine Figur> asimmetrik, nosimmetrik simmemetriyasiz

|| Izoh: bu prefiks *abnorm* noto'g'ri, nonormal so'zida *ab* shaklida hamda *anorganisch* noorganik, jonsiz so'zida *an* shaklida keladi.

Agar lemma allamorfema bo'lsa, o'sha morfema maqola berilgan asosiy lemma(morfema)ga ↑ yoki ↓ belgisi orqali yo'naltirilgan:

**il-** prefiks; ↓in-

Lemmadan adabiy til leksemalaridan boshqa sath birliklari yasalsa, ular *kursiv* harflarda qayd etilgan:

**in-** *urg'uli, kammahsul* o'zlashma prefiks, *yozma usl.*

shaxs yoki predmet so'z yasalishi asosidan anglashilgan narsaga, belgiga, xususiyatga ega emasligini bildiruchi sifat yasaydi

**III. Talaffuz.** Lemmalarning talaffuziga oid ma'lumotlar, asosan o'zga tillardan o'zlashgan va odatiy nemis tili talaffuz qoidalariga mos kelmaydigan birliklardan keyin [-▯▯▯] shaklida berilgan:



[illegible] [▯▯▯] *urg'uli, kammahsul* suffiks; Ma'lum belgiga, [illegible] egalikni (***aggressiv*** agressiyaga, tajovuzkorlikka, [illegible] asoslangan, agressiya yo'lini tutuvchi, agressiv, [illegible], bosqinchi, ***depressiv*** ruhi tushgan, g'amgin, mayus, [illegible] portlovchi, portlaydigan, ***kooperativ*** hamkor, [illegible] oid, qarashli; kooperatsiya asosidagi; [illegible]...

## Qo'llanilgan qisqartmalar ro'yxati

[illegible] – aniqlovchi

[illegible] – badiiy

[illegible] – botanika

[illegible] – va shu kabilar

[illegible] – geologiya

[illegible] – grammatika

[illegible] – grekcha

[illegible] – dealiktik so'zlashuv uslubi

[illegible] – yozma uslubga xos

[illegible] – yozma uslub

[illegible] – ispancha

[illegible] – lingvistika

[illegible] – lotincha-fransuzcha

*<lot.>* –lotincha

*mat.* – matematika

*neol.* – neologizm

*poet.* – poetik

*<roman.>* – romancha

*so'z. usl.* – so'zlashuv uslubiga xos

*tex.* –texnika

*tib.* –tibbiyot

*fiz.* – fizika

*<fr.>* – fransuzcha

*xim.* – ximiya

*esk.* – eskirgan

*haz.* – hazil

**Aa**

1. **a-***kammahsul* o'zlashma prefiks *<grek.>*

O'zi bilan birikib kelgan sifatning antonimini, qarama-qarshi ma'nosini bildiradi ≈ un-; ***ahistorisch*** <eine Betrachtungsweise> notarixiy, tarixiy emas □ historisch, ***alogisch*** <das Denken> mantiqsiz, mazmunsiz □ logisch, ***amusisch*** <ein Mensch> san'atni tushunmaydigan (anglamaydigan), san'atga qobiliyatsiz □ musisch, ***anormal*** <Zustände> nonormal, anormal □ normal, ***asymmetrisch*** <eine Figur> asimmetrik, nosimmetrik, simmemetriyasiz □ symmetrisch.
|| Izoh: bu prefiks *abnorm* (noto'g'ri, nonormal so'zida) *ab-*, *anorganisch* (noorganik, jonsiz so'zida) *an-* shaklida keladi.

2. **ab-** [ar-], *t va z dan oldin* **abs-** *[aps-], mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<lot.> ko'p ma'noli*

Sifatlarga o'zgarish, shuningdek, noto'g'rilik ma'nosini beradi; *(ba'zida o'zakda tovush o'zgarishi sodir bo'ladi)* ***abnorm* 1)** noto'g'ri, qoida (me'yor)dan chetga chiquvchi, g'ayritabiiy **2)** xunuk, og'riqli **3)** *so'z. usl.* g'ayrioddiy, ulkan □ normal, ***abnormal*** *so'z. usl.* noto'g'ri, me'yor (qoida)lardan chetga chiquvchi, g'ayritabiiy □ normal, ***abstrakt*** mavhum, umumiy tarzdagi, konkret bo'lmagan, abstrakt □ abstrahieren.

3. **-a·bel** *fe'llardan (asosan -ieren bilan tugagan) keyin qo'shiladi, urg'uli, kammahsul* o'zlashma suffiks *<lot. fr.>*

Nimadir mumkin, imkonli yoki kim/nimadir biror narsa uchun yaroqliligini ifodalaydi ≈ -bar; ***akzeptabel*** maqbul, ma'qul □ Akzept *n*, ***deklinabel*** turlanuvchi ≈ deklinierbar ↔ indeklinabel <ein Wort> turlanmaydigan, ***transportabel*** <ein Fernsehapparat> ko'chma, ko'chiriladigan □ Transport *m*, ***praktikabel*** <eine Lösung, eine Methode> amaliy, amalga oshirsa bo'ladigan □ Praktik *f*, ***reparabel*** tuzatib (to'g'rilab) bo'ladigan ≈ reparierbar ↔ irreparabel <ein Schaden>
|| Izoh: *der Schaden ist irreparabel ≈ ein irreparabler Schaden.*

4. **a·ber-** *mahsulsiz* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan sifat mazmuniga salbiy (baho berish) ma'noni yuklaydi; ***aberklug*** ayyor, mug'ombir; *kin..* haddan ortiq (o'ta) aqlli □ klug, ***aberweise*** sinchkov, har narsani bilishga qiziquvchi, surishtira-veradigan, o'ziga bino qo'ygan, manman □ weise, **aberwitzig** *bad.* beaql, esi yo'q, tentak, jinni, ko'ngliga kelganini qilaveradigan, bema'ni (ahmoqona) ish tutadigan; ahmoqona, telba-teskari □ witzig.

5. **ab·grund-** [apgrunt-] *kammahsul* yarim prefiks

O'zi birikkan sifat ma'nosini (ta'sirchan, his-tuyg'uli) kuchaytiradi, orttiradi; ***abgrundhäßlich*** o'ta xunuk, badbashara □ häßlich, ***abgrundtief*** *bad.* tagsiz, tubsiz; o'ta chuqur □ tief.

6. **ad-** [at-] *kammahsul* o'zlashma prefiks *<lot.>*

Birikib kelgan sifatlarga biror narsa bilan bog'liq (munosabatda/aloqada) bo'lish ma'nosini beradi; ***adnominal*** *gram.* ot (ism)larga oid, ular bilan bog'liq, ot (ism) ... □ nominal, ***adverbal*** *gram.* fe'llarga oid, ular bilan bog'liq, fe'l .. □ verbal, ***adäquat*** adekvat, muqobil, mos, loyiq.

7. **ae·ro-** [aero-] *kammahsul*

Terminologik leksikaga oid o'zlashma sifatlarga birikib havo, aviatsiya bilan bog'liq ma'noni ifodalaydi; ***aero-***

| | | |
|---|---|---|
| | o‘zlashma prefiks <*grek.*> | ***dynamisch*** aerodinamik □ dynamisch, ***aerostatisch*** aerostatikaga oid aerostatik ... □ statisch. |
| 8. | **af·fen-** ['afen-] *mahsulsiz* yarim prefiks | O‘zi birikkan sifat ma’nosini (ta’sirchan his-tuyg‘uli) kuchaytiradi, orttiradi; ***affenjung*** *so‘z. usl.* juda yosh □ jung. |
| 9. | **ag·ro-** *mahsulsiz* o‘zlashma prefiks <*lot.*> | O‘zlashma terminlar oldidan kelib, ularga qishloq xo‘jaligiga oidlik, u bilan bog‘liqlik ma’nosini bildiradi; ***agrotechnisch*** agrotexnik □ technisch. |
| 10. | **-al, -ial** *sermahsul* o‘zlashma suffiks, *ko‘p ma’noli* <*lot.-fr.*> | **1.** Kim/nimagadir tegishli, qarashli yoki u bilan aloqador (bog‘liq)ligini ifodalaydi; ***direktorial*** direktorga oid, direktor □ Direktor *m*, ***formal*** rasmiy, qonunga muvofiq □ Form *f*, ***gouvernemental*** [guvern(s)ma'ta:l] *esk.* **1)** hukumatga oid, hukumat ... **2)** guberniyaga oid, qarashli guberniya ..., ***kontinental*** qit’aga oid, kontinentga oid, kontinental □ Kontinent *n*, ***ministerial*** vazirga va vazirlikka oid, vazir...; vazirlik...; □ Minister *m*, ***national*** **1)** milliy **2)** milliy, davlatga oid □ Nation *f*, ***museal*** muzeyga oid □ Museum *n*.<br>**2.** Insonni tasvirlashda o‘zakdan anglashilgan xulq-atvor, sifatga egalikni bildiradi; ***banal*** bemaza, bemani, didsiz, siyqasi (rasvosi) chikqan, eskirgan, maza-matrasi qolmagan, tuturiqsiz, ***brutal*** **1)** qupol; hissiz, rahmsiz, zolim **2)** zo‘rlik (zo‘ravonlik) bilan qilingan, amalga oshirilgan, majburiy, zo‘raki.<br>**3.** O‘zlashma ot o‘zagidan anglashilgan ma’noga o‘xshashlik, mutanosiblik ma’nosini bildiradi *(ba’zan o‘zakdagi oxirgi unli o‘zgarishi mumkin)*; ***kolossal*** **1)** ulkan, hashamatli, juda katta **2)** *so‘z. usl.* boshqalarga o‘xshamagan, boshqalardan farq qiladigan, boshqacha, alomat □ Koloß *m*, ***monumental*** monumental, hashamatli, mahobatli, ulug‘vor □ Monument *n*, ***pyramidal*** *so‘z. usl.* ulkan, bahaybat; haddan tashqari, odatdan tashqari □ Pyramide *f*.<br>**4.** Nima bilandir aloqadorliq, bog‘liqlikni ifodalaydi *(ba’zan o‘zakdagi oxirgi unli o‘zgarishi mumkin)*; ***axial*** o‘qqa oid; o‘q bo‘ylab yo‘nalgan, bo‘ylama...; o‘q..., simmetrik □ Achse *f*, ***horizontal*** gorizontal, ufqiy, yotiq □ Horizont *m*, ***vertikal*** vertikal yo‘nalishdagi, vertikal; tik. |
| 11. | **all-** *darajasiz, kammahsul* *yarim prefiks, ko‘p ma’noli* | **1.** Nimadir har doim aynan bir aytilgan vaqtda sodir bo‘lishini ifodalaydi; ***allabendlich*** <der Spaziergang> har kuni kechqurun (kechqurunlari) bo‘ladigan, har kechqurungi □ abendlich, ***alljährlich*** <die Festspiele, ein Ereignis> har yilgi, yilda bir marta bo‘ladigan (o‘tkaziladigan), yillik □ jährlich, ***allsonntäglich*** <der Besuch> yakshanba kuniga oid; yakshanba kuni bo‘lgan (bo‘ladigan), yakshanba kungi; yakshanba... □ sonntäglich, ***alltäglich*** har kungi, har kuni bo‘ladigan (qilinadigan), kundalik □ täglich.<br>**2.** Hamma, butun(lay), to‘liq, umum(an) kabi ma’nolarni ifodalaydi; ***allbekannt*** <ein Politiker> hammaga ma’lum bo‘lgan, hamma biladigan □ bekannt, ***allgewaltig*** <ein Herrscher> har narsaga qodir, |

qudratli, kuchli □ gewaltig, ***allmächtig*** <Gott> har narsaga qodir; har narsaga kuchi, qudrati yetadigan □ mächtig.

12. **al·ler-** *urg'uli, sermahsul* yarim prefiks, *dealik so'zl.usl.*

Orttirma darajadagi belgining mazmunini yanada kuchaytirish (orttirish) uchun ishlatiladi; ***allerbest-*** eng yaxshi □ best (gut), ***allerhöchstens*** boshqa iloji topilmay qolganda; juda bo'lmaydigan bo'lsa, juda bo'lmasa □ höchstens (hoch), ***allerletzt-*** eng oxirida, eng so'nggida □ letzt, ***allerliebst-*** eng sevimli, o'ta suyukli □ liebst (lieb), ***allerschlimmst-*** eng yomon □ schlimmst (schlimm), ***allerschönst-*** eng (o'ta) chiroyli, kelishgan □ schönst (schön), ***allerspätestens*** eng kechi bilan, o'ta kech qolganda □ spätestens (spät).

13. **al·lo-**, *unlilar oldidan* **all-** [al-] *shaklida, mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<grek.>*

Sifatlarga o'zgaruvchanlik, xilma-xillik ma'nosini beradi; ***allochromatisch*** [-k-] alloxromatik □ chromatisch, ***allochthon*** *geol.* alloxtonnik □ autochton, ***allogam*** ko'ndalang changlanadigan, urug'lanadigan.

14. **all·zu** *sermahsul* murakkab yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***allzufrüh*** juda erta □ früh, ***allzugern*** (juda) bajonu dil □ gern, ***allzusehr*** o'ta □ sehr, ***allzuviel*** juda ko'p □ viel, ***allzuwenig*** juda kam, oz □ wenig.

15. **an-** *mahsulsiz* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni ma'lum darajada kengaytiradi, aniqlashtiradi; ***angenehm*** 1) yoqimli, xush keladigan 2) istalgan, tilangan, matlub, ma'qul, maqbul; kerak □ genehm.



16. **-ant** *sermahsul (ko'lgan)* o'zlashma suffiks *-ant/-ens, ko'p ma'noli*

**1.** Inson xarakterini tasvirlashda o'zakdan anglashilgan belgining mavjudligini bildiradi; ***arrogant*** manman, dimog'dor, dimog'i (kibr-havosi) baland, mag'rur, takabbur, kekkaygan □ Arroganz, ***elegant*** zebo, bashang, orasta; kelishgan, xushbichim □ Eleganz *f*, ***konziliant*** xushmuomala, muomalali, muloyim, sermulozamat, sertakalluf, takallufli, ***tolerant*** chiqishib keta oladigan, sabr-toqat qiladigan, sabr-toqatli □ Toleranz *f*.

**2.** O'zakdan anglashilgan ma'noga egalikni bildiradi; ***diskrepant*** og'uvchi, chetga chiquvchi, farqlanuvchi (xislat) □ Diskrepanz *f*, ***frappant*** hayratda qoldiradigan, ajoyib, aqlni shoshiradigan, nihoyatda ajoyib voqea (hodisa) □ frappieren *vt*, ***redundant*** keragidan ortiq, ko'p, ortiqcha □ Redundanz *f*, ***relevant*** muhim, ahamiyatli; dolzarb □ Relevanz *f*, ***vakant*** vakant, bo'sh (hech kim band qilmagan) □ Vakanz *f*.

17. **an·ti-** *urg'uli va urg'usiz, (qisman) sermahsul* o'zlashma prefiks *<grek.>*

Kim/nimagadir qarshi yo'naltirilgan, kim/nimaningdir aksi; ***antiautoritär*** <eine Erziehung> avtoritar (tizim)ga qarshi, antiavtoritar □ autoritär, ***antidemokratisch*** <Tendenzen, Äußerungen> demokratiyaga qarshi; demokratiyaga qarshi qaratilgan, antidemokratik □ demokratisch, ***antifaschistisch*** <der Widerstand, eine Politik> fashizmga qarshi qaratilgan,

antifashist □ faschistisch, ***antiimperia-listisch*** <eine Haltung> imperializmga qarshi; imperializmga qarshi qaratilgan, anti-imperialistik □ imperialistisch, ***anti-semitisch*** <eine Gesinnung> anti-semitlarga va antisemitizmga oid, antisemitizm ruhidagi, antisemitik □ semitisch.

18. **-ar** *mahsulsiz* o'zlashma suffiks *<lot.-fr.>*

O'zakdan anglashilgan ma'noni jonsiz predmet va hodisalarda mavjudligini ifodalaydi (asosan, terminlarda); ***atomar*** **1)** *xim., fiz.* yadroga (atom yadrosiga) oid **2)** yadroviy, atomga oid □ Atom *n*, ***insular*** orolga oid; orolda bo'lgan (bo'ladigan), orolda joylashgan; orolda, orol... □ Insel *f*, ***korpuskular*** *fiz.* korpuskulaga oid; korpuskulyar □ Korpuskel *n*, ***lunar*** *astr.* oyga oid; oy... □ Luna *f*, ***molekular*** molekulaga oid, molekulyar; molekula... □ Molekül *n*, ***auxiliar*** *(eskirgan shakli.* auxiliär) yordamchi, ko'makchi, ***velar*** *fon.* til orqa □ Velum *<lot.> n.*

19. **-är** [-'ɛ: r] *mahsulli* o'zlashma suffiks *<lot.-fr.>, ko'p ma'noli*

**1.** Nimagadir tegishli, qarashli ekanligi ma'nosini ifodalaydi *(ba'zan o'zakda tovush o'zgarishi sodir bo'lishi mumkin)*; ***muskulär*** muskul(lar)ga, mushaklarga oid; muskul...; mushak... □ Muskel *f*, ***reaktionär*** **1)** reaksion **2)** reaksiya chaqiruvchi □ Reaktion *f*, ***revolutionär*** revolyusion, inqilobiy, revolyusion (inqilobiy) ruhdagi, revolyusion (inqilobiy) ruh bilan sug'orilgan □ Revolution *f*, ***autoritär*** obro'ga ega bo'lgan, obro'li, nufuzli, etiborli □ Autorität *f*, ***quaternär*** *xim.* to'rtlamchi (davrga oid) □ Quartär *p*, ***sanitär*** sanitariyaga oid; sanitariya... □ Sanität *f*.

**2.** Nima bilandir bog'liq, u bilan aloqador kabi ma'noni anglatadi; ***bazillär*** batsilla (tayoqcha shaklidagi bakteriya)ga oid □ Bazillen *pl*, ***legendär*** afsonadan (rivoyatdan) iborat bo'lgan; afsonalarda bo'ladigan, afsonaviy □ Legende *f*, ***visionär*** **1)** xayolda (tasavvurda) ko'rinadigan, xayoldagi, xayoliy **2)** bashoratli, bashorat qilib aytilgan, dohiyona □ Vision *f*.

20. **-arm** *darajasiz, sermahsul* yarim suffiks

O'zakdan anglashilgan narsaga oz, kam miqdorda ega ma'nosini anglatadi ≈ arm (2) an etwas ↔ reich; ***fantasiearm*** <ein Mensch> ijodkorona emas, fantaziyaga boy bo'lmagan □ Fantasie *f*, ***fettarm*** <eine Kost> yog'i kam, yog'ga boy bo'lmagan □ fett, ***gefühlsarm*** <ein Mensch> his-tuyg'uga boy bo'lmagan □ Gefühl *n*, ***geräuscharm*** <eine Maschine> kam shovqinli □ Geräusch *n*, ***ideenarm*** <ein Film> g'oya, fikrga boy bo'lmagan □ Idee *f*, ***kalorienarm*** <eine Kost> kam kaloriyali, kaloriyasi kam (past); to'yimsiz □ Kalonie *f*, ***kontaktarm*** <ein Mensch> kam aloqali; kam chiqishimli, kirishuvchan emas □ Kontakt *m*, ***niederschlagsarm*** <ein Monat> yog'ingarchilik kam bo'lgan, quruq kelgan, quruq □ Niederschlag *m*,





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

***nikotinarm*** <eine Zigarette> ... nikotinli, nikotini kam □ Nikotin ..., ***stickstoffarm*** <ein Boden> azotga boy bo'lmagan, azoti kam, kam azotli □ Stickstoff *m.*

21. **-ar·tig** *darajasiz, sermahsul* murakkab suffiks

So'zning o'zagidan anglashilgan ma'noga o'xshash yoki o'shandek yaratilganlik ma'nosini anglatadi; ***blitzartig*** <eine Reaktion> yashin tezligidagi; yashindek tez; shiddatli □ Blitz *m,* ***katzenartig*** <eine Geschicklichkeit> xuddi mushuk kabi, mushukdek □ Katze *f,* ***krebsartig*** <eine Geschwulst> rak kasaliga oid; rak... □ Krebs *m,* ***palastartig*** <ein Haus> hashamatli, saroydek □ Palast *m,* ...e ..läste, ***sintflutartig*** <Regen> jala... (kuchli) □ Sintflut *f,* ***wellenartig*** <eine Bewegung> to'lqinsimon, to'lqinga o'xshash □ Welle *f.*

22. **-at** *kamahsul* o'zlashma suffiks <*lot.*>

Sifatlarga odamlarni, predmetlarni va hodisalarni tasvirlashda o'zakdan anglashilgan xislat (xususiyat) ma'nosini beradi; ***delikat*** xushmuomala, nazokatli, odobli, muloyim □ deliziös *Adj..,* ***desperat*** umidsizlangan, umidsizlikka tushgan, ruhi tushib ketgan, mushkul (noiloj, ilojsiz) ahvoldagi; noilojlikdan qilingan, noiloj, noumid □ Desperado <*isp.*> ..., ***obligat*** bajarilishi (qilinishi) shart bo'lgan, albatta qilinishi kerak bo'lgan, majburiy, kerak, lozim, shart □ obligieren *vt esk.,* ***probat*** sinalgan, sinashtirilgan, sinamol, ishonchli □ probieren *vt,*



***separat*** ayrim, alohida, bo'lak, mustaqil □ separieren *vt esk.,* ***desolat*** **1)** yakka, yolg'iz, tanho; boshqalardan ajralgan, so'ppaygan, so'qqaygan, so'qqa **2)** tasalli topmagan, tasalli bergan bilan bo'lmaydigan, yurakdan chiqmaydigan, dardmand, dard-hasrati ko'p, ***disparat*** bir-biriga to'g'ri (muvofiq, mos) kelmaydigan, zid; qarama-qarshi, ***obstinat*** o'jar, qaysar, sarkash.

23. **-au·to-** *urg'usiz, kammahsul* o'zlashma prefiks <*grek.*>

Nimanidir o'zga shaxs yordamisiz sodir bo'ladishini ifodalaydi; ***autodidaktisch*** mustaqil, o'zi o'rganadigan □ didaktisch.

## Bb

24. **-bar** *sermahsul suffiks, ko'p ma'noli*

**1.** *(O'timli fe'ldan, majhul nisbat mazmunli)* So'z o'zagidan anglashilgan harakatning amalga oshuvchanligini ifodalaydi (*ko'pincha un-* ga antonim bo'ladi); ***(un)abwendbar*** <ein Unglück> oldini olsa, bartaraf etsa bo'ladigan □ abwenden, ***(un)anfechtbar*** <ein Vertrag> janjalli, munozarali, talash □ anfrechten, ***(un)annehmbar*** <Bedingungen> maqbul, maqul, muvofiq, qabul qilsa bo'ladigan □ annehmen, ***(un)auffindbar*** <eine Stelle> topiladigan, topsa bo'ladigan □ auffinden, ***(un)auflösbar*** <eine Bindung> hal bo'ladigan, hal qilib (echib) bo'ladigan □ auflösen, ***(un)ausführbar*** <ein Auftrag> bajarilishi (amalga oshirilishi) mumkin bo'lgan, amalga oshadigan, bajarsa bo'ladigan □ ausführen, ***auswechselbar***

<ein Objektiv> almashinadigan [illegible] birining o'rniga qo'yiladigan [illegible] almashtiriladigan, almashinuvchi [illegible] auswechseln.

**2.** So'z o'zagidan anglashilgan ma'[illegible] oson tarzda amalga oshishini ifodalay[illegible] (*un-* ga antonim bo'ladi); ***(un)brenn[illegible]*** <ein Stoff> oson yonadigan, yonuvch[illegible] yonuvchan (≈oson yonadi) □ brenn[illegible] ***streitbar*** <eine Person> janjalkash [illegible] streiten, ***unentrinnbar*** <ein Schicksal> muqarrar, albatta yuz beradigan, shak[illegible] shubhasiz bo'ladigan □ entrinn[illegible] ***unsinkbar*** <ein Schiff> cho'kmas [illegible] sinken, ***unversiegbar*** <eine Quelle> [illegible] qurimaydigan, tortilmaydigan, to'xta[illegible] qolmaydigan □ versiegen, ***unwandelba[illegible]*** <jemandes Treue> o'zgarmaydigan [illegible] o'zgarmas, doimiy; doim bir hold[illegible] bo'ladigan, bir zaylda turadigan [illegible] wandeln.

25. **ba·um-** *kammahsul* yarim suffiks

O'zakdan anglashilgan sifat, belgining [illegible] ma'nosini kuchaytiradi, orttiradi[illegible] ***baumfest*** qattiq, daraxtdek mustahkam [illegible] qattiq, □ fest, ***baumlang*** *so'z. usl.* uzun [illegible] uzoqqa ketgan, uzoq; cho'zin[illegible] cho'zinchoq; ein baumlanger Ke[illegible] novcha, naynov yigit □ lang, ***baumstar[illegible]*** kuchli, baquvvat, barvasta, azamat [illegible] stark.

26. **be-** *sermahsul* prefiks,

Sifatlarga biror narsa bilan ta'minlanish[illegible] ba'zi bir xususiyat, xislatlarga ega bo'li[illegible]



[illegible] ma'nosini beradi *(ba'zan so'nggi unli tushishi mumkin)*; ***bebrillt*** ko'zoynakli (ko'zoynakda) □ Brille *f*, ***befrackt*** frak (oldingi etagi qisqa, orqa etagi uzun erkaklar kiyimi) kiygan □ Frack *m*, ***behuft*** *zool.* tuyoqqa oid; tuyoqli(lar)... □ Huf *m*, ***bemehlt*** unlangan, un sepilgan □ Mehl *n*.

27. **bi-** *terminologik* [illegible] prefiks [illegible]

Sifatlarga nimadadir ikkita predmet, qism yoki belgining mavjudligi ma'nosini yuklaydi; ***biatomar*** *xim.* ikki atomli; ikki atomdan iborat bo'lgan □ atomar, ***bikonkav*** *opt.* ikki yoqlama botiq □ konkav, ***bilabial*** 1) *bot.* bilabial 2) *fon.* bilabial tovush, lab-lab tovushi □ labial, ***bimolekular*** [bi-] *xim.* bimolekulyar, ikki molekulali □ molekular, ***bienn*** [bi-] ikki yillik; ikki yil davom etgan (etadigan); ikki yilga mo'ljallangan *(mas., o'simliklar haqda)* □ dezennal.

28. **bi·o-** [illegible] prefiks (*grek.*)

O'zakdan angashilgan ma'noning jonzot, organik hayotga tegishlilikni anglatadi; ***biochemisch*** bioximiyaga oid, bioximik □ chemisch, ***biotechnisch*** biotexnik □ technisch.

29. **bit·ter-** *kammahsul* yarim prefiks

Salbiy mazmundagi sifatlarga kuchaytirish mazmunini yuklaydi; ***bitterböse*** <ein Gesichtsausdruck, ein Mensch> badjahl, juda yomon johil □ böse, ***bitterernst*** <eine Lage, eine

Situation> o'ta jiddiy □ ernst, *bitterkalt* <der Wind> qattiq, o'ta sovuq □ kalt

| | | |
|---|---|---|
| 30. | **blitz-** *kammahsul* yarim prefiks, *so'z. usl* | Sifat mazmunini ijobiy kuchaytiradi; ***blitzblank*** <geputzt> oinadek toza □ blank, ***blitzgescheit*** juda aqlli □ gescheit, ***blitzsauber*** juda toza □ sauber, ***blitzschnell*** yashindek tez □ schnell. |
| 31. | **blut-** *sermahsul* yarim prefiks | O'zakdan anglashilgan sifat, belgi ma'nosini kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***blutarm*** *so'z. usl.* juda, o'ta kambag'al, qashshoq □ arm, ***blutfremd*** *so'z. usl.* butunlay, umuman begona, besh begona □ fremd, ***blutjung*** *so'z. usl.* juda yosh □ jung, ***blutmüde*** *so'z. usl.* toza, butunlay charchagan, holdan to'ygan □ müde, ***blutnötig*** *ohz.* juda (suv va havodek) zarur □ nötig, ***blutteuer*** *so'z. usl.* juda qimmat □ teuer. |
| 32. | **bom·ben-** *mahsulli* yarim prefiks | O'zakdan anglashilgan sifat, belgi ma'nosini kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***bombenfest*** *so'z. usl.* shubha tug'dirmaydigan, shubhasiz, shak-shubhasiz; begumon, aniq; das steht bombenfest **bu butunlay aniq, ishonarli**; darauf kannst du dich bombenfest verlassen **bunga butunlay ishonishing mumkin** □ fest, ***bombenruhig*** *so'z. usl.* butunlay tinch, sokin □ ruhig, ***bombensicher*** *so'z. usl.* butunlay ishonchli □ sicher. |



| | | |
|---|---|---|
| 33. | **brand-** *kammahsul* yarim prefiks | O'zakdan anglashilgan sifat, belgining ma'nosini kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi ≈ sehr, äußerst, absolut; ***brandaktuell*** <eine Nachricht, eine Reportage> o'ta dolzarb □ aktuell, ***brandeilig*** <ein Auftrag> o'ta shoshilinch □ eilig, ***brandgefährlich*** o'ta xavfli □ gefährlich, ***brandneu*** <ein Auto, ein Modell> yap-yangi □ neu. |

## Cc

| | | |
|---|---|---|
| 34. | **che·mo-** [çe:mo-] *mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<grek.>* | Sifatlarga kimyoviy jarayonlar bilan bog'liq xususiyatlar ma'nosini yuklaydi; ***chemotechnisch*** texnoximik □ technisch, ***chemotherapeutisch*** *tib.* ximioterapiya (yuqumli kasalliklarni ximiyaviy moddalar bilan davolash)ga oid □ therapeutisch. |

## Dd

| | | |
|---|---|---|
| 35. | **de-**, *unlilardan oldin* **des-** *shaklida, mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<lot.-fr.>, ko'p ma'noli* | **1.** O'zlashma sifatlarga inkor etish yoki qarama-qarshilik ma'nosini beradi; ***desinteressiert*** qiziqmaydigan, havas qilmaydigan, ishi (ishtiyoqi) yo'q □ interessiert, ***devital*** *tib.* jonsiz, o'lik □ vital, ***dezentral*** markazdan uzoqda, markazlash-tirilmagan □ zentral. **2.** Grammatik tushunchalarni bildiruvchi o'zlashma sifatlarga nimadandir kelib chiqqanlik, nima bilandir aloqadorlik, bog'liqlik kabi ma'nolarni ifodalaydi; ***denominal*** *gram.* ot yoki sifatdan |

yasalgan □ nominal, ***deverbal*** *gram.* fe'ldan yasalgan □ verbal.

36. **di-** *mahsulsiz* o'zlashma prefiks, *<grek.>*

O'zlashma terminologik leksikaga nimadadir ikkita predmet, qism yoki belgi mavjudlik ma'nosini yuklaydi; ***dibasisch*** *xim.* ikki o'qli; ikkita o'qi bo'lgan □ basisch, ***dichromatisch*** [-k-] ikki rangli, dixromatik □ chromatisch, ***dipolar*** ikki qutbli □ polar.

37. **dis-** *mahsulsiz* o'zlashma prefiks, *<lot.>, o'zbek tilidagi* no-, -siz *qo'shimchalariga to'g'ri keladi*

O'zlashma sifatlarga inkor etish yoki qarama-qarshilik ma'nosini beradi; ***disharmonisch*** *mus.* garmoniyasiz; nosoz, hamohang bo'lmagan, noohangdosh □ harmonisch, ***disloyal*** noto'g'ri; formal jihatdan sodiq (yoki xolis) emas, qonun-qoida chegarasida emas; beadab □ loyal, ***disproportioniert*** nomutanosib, o'lchovi o'lchoviga to'g'ri kelmaydigan, mutanosib bo'lmagan, nisbatsiz □ proportioniert.

## Ee

38. **-ell** *urg'uli, kammahsul* o'zlashma suffiks, *<lot. -fr.> ko'p ma'noli*

**1.** So'z o'zagidan anglashilgan ma'no haqida, ma'noga oidlik ma'nosini bildiradi; ***finanziell*** <Probleme> moliyaviy □ Finanz *f*, ***industriell*** <die Entwicklung> sanoatga oid □ Industrie *f*, ***intellektuell*** <eine Leistung> aqliy, intellektual □ Intellekt *f*.

**2.** O'zakdan anglashilgan muassasa, predmet orqali (ta'sir qilinadi va b.); ***bakteriell*** <verseucht> bakteriyaga oid; bakteriya... □ Bakterie *f*, ***maschinell*** <lesbar, gefertigt> mashinaga oid; mashina(lar) uchun belgilangan, mashina... □ Maschinie *f*, ***ministeriell*** <ein Erlass> vazirga va vazirlikka oid □ Minister *m*, ***notariell*** <eine Beglaubigung> notariusga oid; notarius tomonidan guvohlantirilgan; notarial □ Notar *m*.

**3.** O'zakdan anglashilgan xislarga kim/nimadir ega ekanligini, o'sha holatda ekanligini yoki biror narsa deb atash mumkin ekanligini ifodalaydi; ***emotionell*** emotsiyaga (his-tuyg'uga) oid; emotsional, jo'shqin, hayajonli; his-tuyg'uga to'la; jo'shqinlikni (his-tuyg'uni) ifodalay-digan □ Emotion *f*, ***exzeptionell*** boshqalarga o'xshamagan, boshqalardan farq qiladigan, boshqacha, alomat □ Exeption *f*, ***konventionell*** hamma qabul qilgan, hammaga ma'qul bo'lgan; rasm bo'lib qolgan □ Konvention *f*, ***sensationell*** sensatsion, shov-shuv (duv-duv) gap bo'ladigan, hammani hayratga soladigan □ Sensation *f*.

39. **-(e)n** *sermahsul* suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** Nemischa yoki o'zlashgan narsa-buyum, shuningdek, o'simlik nomlariga bog'lanib, o'zakdan anglashilgan ma'noga egalik, mavjudlikni bildiradi; ***basalten*** bazal't-ga oid; bazal't... □ Basalt *m*, ***bronzen*** bronzadan yasalgan, bronza... □ Bronze *f*, ***buchen*** bukka, qora qayin daraxtiga oid; buk (qora qayin) yog'ochidan qilingan; buk... □ Buche *f*,

***buttern*** yog' (moy)ga oid; yog'li, moyli; yog'...; moy... □ Butter *f*, ***dornen*** tikanli; tikanakli □ Dorn *m*, ***eichen*** dubga oid; dubdan ishlangan; dub... □ Eiche *f*, ***milchen*** sutli, sutdan yasalgan/tayyorlangan □ Milch *f*.

2. Narsa-buyum otlari bilan birikib, o'zakdan anglashilgan ma'no, belgiga egalik, mavjudlikni bildiradi; ***bronzen***: eine bronzene Gesichtsfarbe **bronza rangli, bug'doy rangli yuz**, ***golden***: goldenes Herz **oltin (mehrli) yurak**; eine goldene Jugendzeit **yoshlikning oltin davri**, ***metallen:*** metallener Klang **jaranglama, jarangli ovoz.**

40. **en·gel-** *mahsulli* yarim prefiks

Inson xarakteri va ijobiy ma'no anglatuvchi sifatlar ma'nosini kuchaytiradi, orttiradi; ***engelschön*** *bad.* juda [farishtadek] chiroyli □ schön, ***engel(s)- gut*** *bad.* juda [farishtadek] mehribon, yaxshi □ gut, ***engel(s)rein*** *bad.* juda [farishtadek] toza, ozoda, pokiza □ rein.

41. **ent-** *sermahsul* prefiks, *shuningdek, kuchsiz fellardan sifatdosh II shaklini* -t *suffiksi yordamida yasaydi*

Otlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan ma'noga ega emaslik (mavjud emaslik) ma'nosini bildiradi *(ba'zan so'nggi unli tushib qolishi mumkin);* ***entgöttert*** xudosiz *(mamlakat, davlatlar haqida)* □ Götter *pl (*Gott *t ning ko'plik shakli),* ***entseelt*** *poet.* qalbsiz, jonsiz □ Seele *f*, ***entwlllt*** irodasiz, irodasini yo'qotgan □ Wille *m*.



42. **-er** *faqat aniqlovchi vazifasida, sermahsul turlanmas* suffiks

Geografik nomlar bilan birikib keladi; der ***Bremer/bremer Stadtrand*** Brem shahri chekkasi, das ***Thüringer Würstchen*** Tyuring (shahri) sosiskasi, ***Lübecker Marzipan*** Lyubek (shahri) marsipani.

|| Izoh: Bu sifatlar o'zgarmas mahsulot nomlariga tegishli bo'lsa, ular bosh harf bilan yoziladi.

43. **-er II** *mahsulsiz* suffiks

O'nlik sonlarni bildiruvchi sonlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan songa yaqin, taxminiylik ma'nosini ifodalaydi; ***achtziger*** saksoninchi: achtziger Jahre **saksoninchi yillar**; in den achtziger Jahren **saksoninichi yillarda** □ achtzig, ***fünfziger*** ellikinchi, ***neunziger*** to'qsoninchi.

44. **-ern** -yen *suffiksining kengaygan shakli hisoblanadi, sermahsul (ko'pincha o'zakdagi unli umlaut oladi), ko'p ma'noli*

1. O'zakdan anglashilgan ma'nodan yasalganlik, tayyorlanganlik, uning mavjudligi, unga egalikni bildiradi; ***beinern*** suyakdan (yoki dandondan) qilingan □ Bein *p*, ***blechern*** tunukaga oid; tunukadan qilingan; tunuka... □ Blech *p*, ***gläsern*** shishaga (oynaga) oid; shishadan qilingan, shisha... □ Glas *n*, ***hölzern*** yog'ochdan yasalgan (ishlangan, qilingan); yog'ochdan olingan; yog'och... □ Holz *n*, ***steinern*** toshga oid; toshdan (yoki g'ishtdan) qilingan; toshli, toshloq; tosh... □ Stein *t*.

2. Narsa-buyum otlariga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan belgiga egalikni bildiradi (inson xarakteri va xislatini ifodalovchi sifatlar yasaydi); ***blechern***: eine blecherne Stimme **zirillagan (dirillagan) [chinqiroq] ovoz** □ Blech *n*, ***bleiern***: eine bleierne Müdigkeit **og'ir charchoq**; ein bleierner Schlaf **qattiq [qo'rg'oshindek] uyqu** □ Blei *p*, ***gläsern***: ein gläserner Blick **jonsiz, nursiz, manosiz qarash** □ Glas *n*.

45. **erz-** *kammahsul* prefiks, *kamsituvchi ma'noli*

Salbiy xislatlarni haddan ziyodligini oshirib ko'rsatish uchun qo'llaniladi; ***erzdumm*** o'ta ahmoq □ dumm, ***erzfaul*** o'ta yalqov, dangasa □ faul, ***erzkonservativ*** o'ta konservativ, eskilikni yoqlovchi, eskilikka yopishib olgan □ konservtiv, ***erzreaktionär*** butunlay reaksion; kontrrevolyusion; aksilinqilobiy, teskarichi, jaholatparast □ reaktionär.

46. **-esk** *mahsulsiz* o'zlashma suffiks, *<roman.>*

Narsa-buyumlar (ba'zan insonlar) xususiyati, belgisini ifodalashda o'zakdan anglashilgan ma'no, belgiga egalikni bildiradi *(ba'zan o'zakda fonetik o'zgarishlar sodir bo'ladi)*; ***balladesk*** ballada ko'rinishida, ballada... □ Ballade *f*, ***chevaleresk*** *<fr.>* [ʃəva-] olijanob, mardonavor, fidokorona, tanti □ Chevalier *m*, ***burlesk*** masxarabozga (qiziqchiga, hazilkashga) oid, masxaraboz (qiziqchi, hazilkash)..., ***grotesk*** g'alati, ajoyib, g'aroyib;



serhasham, antiqa, ***pikaresk*** makkorlikka (hiylaga) oid; makrli □ pikarisch.

47. **-ett** *mahsulsiz* o'zlashma suffiks *<fr.>*

Sifatlarga shaxs va jonsiz predmetlarni ta'riflashda bir xislat, belgi borligi ma'nosini yuklaydi; ***adrett*** 1) *esk.* epchil, chaqqon , abjir 2) chiroyli, go'zal, barno, xushro'y 3) ozoda, toza, pokiza, saranjom-sarishta, ***brünett*** qorasoch, qora sochli, sochi qora □ brünieren *vt.*, ***honett*** halol, pok, vijdonli, to'g'ri; sofdil □ Honneur *n*.

48. **ex-** ['eks-] *kammahsul* o'zlashma prefiks *<lot.>*

Sifatlarga biror narsadan tashqarida bo'lish ma'nosini beradi; ***exterritorial*** eksterritorial (eksterritoriallik huquqiga ega bo'lgan) □ territorial, ***extern*** 1) tashqi 2) shtatsiz, shtatdan tashqari, shtatda yo'q □ intern.

49. **extra-** *kammahsul* yarim prefiks, *so'z. usl.*

O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi ≈ sehr, besonders: ***extragroß*** <eine Portion> juda katta □ groß, ***extrafein*** juda nafis □ fein, ***extraflach*** <eine (Armband) Uhr> juda yassi, yalpoq, tekis □ flach, ***extralang*** <eine Hose> juda uzun □ lang, ***extrastark*** juda kuchli □ stark.

## Ff

50. **-fach** *kammahsul*

O'zakdan anglashilgan son, miqdorning o'shancha marta mavjudligi yoki o'sha

*suffiks, faqat aniql. yoki hol.*

marotaba bajarilishini ifodalaydi; ***zweifach*** ikki marta ortiq, ikki baravar ko'p; ikki marta, ikki karra, ikki hissa □ zwei, ***dreifach*** uch marta ortiq, uch baravar ko'p; uch marta, uch karra, uch hissa □ drei, ***vierfach*** to'rt marta ortiq, to'rt baravar ko'p; to'rt marta, to'rt karra, to'rt hissa □ vier, ***mehrfach*** bir necha bor, bir necha marta (takror-takror, qayta-qayta) aytilgan (qilingan, bo'lgan va h. k.) □ mehr, ***vielfach*** ko'p karrali, bir necha bor (qayta-qayta) takrorlangan, takror-takror, qayta-qayta □ viel: *ein dreifacher Salto/* **uch martalik salto**; *sich mehrfach entschuldigen/***ko'p marotaba kechirim so'ramoq.**

51. **-fä·hig** *sermahsul* yarim suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** O'zakdan anglashilgan harakatni biror shaxs yoki narsa yaxshi bajara olishini ifodalaydi; ***anpassungsfähig*** moslashuvchan □ Anpassung *f*, ***denkfähig*** yaxshi o'ylay, fikrlay oladigan □ denken, ***flugfähig*** <ein junger Vogel> ucha oladigan □ Flug *m*, ***keimfähig*** <Samen> yaxshi unib chiqadigan, unuvchan □ keimen, ***lernfähig*** yaxshi o'rgana oladigan □ lernen, ***widerstandsfähig*** <ein Material> chidamli, pishiq, puxta □ Wiederstand *m.*

**2.** Berilgan shaxs yoki narsa bilan nimanidir bajara olishi mumkinligini ifodalaydi; ***manövrierfähig*** <ein Fahrzeug> boshqariluvchan (yaxshi boshqariladigan) □ manövrieren, ***strapazierfähig*** <ein Teppich> mahkam, pishiq, puxta, chidamli, mustahkam, bardosh beradigan □ strapazieren, ***streich-fähig*** <Käse, Wurst> surtiluvchan (yaxshi surtiladigan) □ streichen, ***vernehmungsfähig*** <ein Zeuge> so'roq qilsa bo'ladigan □ Vernehmung *f.*



**3.** Kim yoki nimadir biror narsa uchun yaroqli yoki qodir ekanligini ifodalaydi; ***ausbaufähig*** <Beziehungen> rivojlan-tirish mumkin bo'lgan, istiqbolli □ Ausbau *m*, ***einsatzfähig*** <ein Sportler> kurashuvchan, jangovar □ Einsatz *m*, ***gebrauchsfähig*** <ein Werkzeug> ishlatishga, qo'llashga yaroqli □ Gebrauch *m*, ***schulfähig*** <ein Kind> o'quvchan, o'qishi mumkin bo'lgan □ Schule *f*, ***seefähig*** <ein Schiff> suzuvchan □ See *f*, ***transportfähig*** <ein Patient> tashuvchan, transportda tashisa bo'ladigan □ Transport *m*, ***wettbewerbsfähig*** <ein Betrieb> raqobat-bardosh(li) □ Wettbewerb *m.*

52. **-fer·tig** *kammahsul* yarim suffiks

O'zakdan anglashilgan harakatni tez yoki ortiqcha tayyorgarliksiz amalga oshirish mumkinligini ifodalaydi; ***backfertig*** <eine Speise> yopishga tayyor □ backen, ***bezugsfertig*** <eine Wohnung> ko'chib kirishga tayyor □ Bezug *m*, ***druckfertig*** <ein Manuskript> chop etishga tayyor □ Druck *m*, ***kochfertig*** <eine Speise> pishirishga tayyor □ kochen, ***versandfertig*** <eine Ware> jo'natishga tayyor □ Versand *m.*

53. **-för·mig** *sermahsul murakkab suffiks*

O'zakdan anglashilgan ma'no shaklida kabi ma'noni ifodalaydi; ***eiförmig*** tuxumsimon, tuxumga o'xshagan, tuxum shaklidagi □ Ei *n*, ***glockenförmig*** qo'ng'iroqsimon, qo'ng'iroqqa o'xshagan, qo'ng'iroq shaklidagi □ Glocke *f*, ***herzförmig*** yuraksimon, yurak shaklidagi □ Herz *n*, ***hufeisenförmig*** taqasimon, taqaga o'xshash □ Hufeisen *n*, ***kreisförmig*** yumaloq, dumaloq □ Kreis *m*, ***sternförmig*** yulduz shakldagi □ Stern *m*.

54. **-frei** *kammahsul* yarim suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** Kim/nimadir o'zakdan anglashilgan predmetga ega emasligini ifodalaydi; ***akzentfrei*** <sprechen> aksentsiz □ Akzent *m*, ***alkoholfrei*** <Bier> alkogolsiz □ Alkohol *m*, ***fehlerfrei*** xatosiz □ Fehler *m*, ***störungsfrei*** <ein Fernsehbild; Verkehr> 1) gzluksiz, beto'xtov, muttasil 2. xalalsiz □ Störung *f*.

**2.** O'zakdan anglashilgan ma'noni to'lanishi shart bo'lmasligini anglatadi ↔ -pflichtig; ***beitragsfrei*** badalsiz □ Beitrag *m*, ***gebühren-frei*** yig'im (to'lov, soliq)siz □ Gebühr *f*, ***portofrei*** pochta to'lovisiz □ Porto *n*, ***steuerfrei*** soliqdan ozod qilingaan □ Steuer *f*, ***zollfrei*** bojdan ozod ьilingan □ Zoll *m*.

**3.** O'zakdan anglashilgan ma'no amalga oshmasligini ifodalash uchun qo'llaniladi; ***knitterfrei*** <ein Stoff> g'ijimlanmaydigan, g'ijim bo'lmaydigan, ezilmaydigan □



Knitter *m*, ***rostfrei*** <ein Messer> zanglamaydigan, zang bosmaydigan □ Rost *m*.

**4.** O'zakdan anglashilgan ma'noni bajarish shart emasligini ifodalash uchun qo'llaniladi; ***bügelfrei*** <ein Hemd> dazmollanmaydigan □ Bügel *m*, ***reparaturfrei*** tuzatilmaydigan, ta'mirlanmaydigan □ Reparatur *f*, ***wartungsfrei*** <eine Maschine> texnik xizmat ko'rsatish talab etilmaydigan □ Wartung *f*.

55. **-fremd** *kammahsul* yarim suffiks

O'zakdan anglashilgan ma'no bilan aloqasizlik, unga begonalik ma'nosini bildiradi *(ba'zida bog'lovchi vositalar bilan keladi)*; ***artfremd*** **1)** begona turli; begona tabiatli *(nimadir)* **2)** *fiz.* geterogen tarkibi, kelib chiqishi jihatidan har xil, turli jinsli; begona, chet, yot □ Art *f*, ***betriebsfremd*** boshqa korxonada ishlovchi □ Betrieb *m* -(e)s, -ye, ***landfremd*** begona, chet el...; kelgindi, chetdan kelgan □ Land *n*, ***lebensfremd*** hayotdan (haqiqatdan) uzoq, hayotda bo'lmagan (bo'lmaydigan); hayotiy emas □ Leben *n* -s, =, ***ortsfremd*** (boshqa joydan) kelgan □ Ort *m*.

## Gg

56. **ge-(I)** *mahsulsiz* prefiks, *ko'p ma'noli*

**1.** O'zakdan anglashilgan ma'no bilan ta'minlanganlik, ushbu belgiga egalikni bildiradi va kuchsiz fe'llarning sifatdosh 2 shaklida -(e)t suffiksi bilan birga keladi

*(ba'zan oxirgi unli tushib qoladi)*; ***geblümt*** gullagan *(o'simliklar haqida)*; gulga burkangan □ Blume *f*, ***gebuchtet*** ko'rfazli, qo'ltiqli □ Bucht *f*, ***gelaunt*** kayfiyatli, avzo, ruhiy holati; gut [schlecht] gelaunt **yaxshi [yomon] kayfiyatda** □ Laune *f*, ***gesittet*** **1)** yaxshi tarbiya ko'rgan, tarbiyali, odobli, xushaxloq **2)** madaniyatli, ma'rifatli, keng ma'lumotli □ Sitte *f*.

**2.** O'zakdan anglashilgan ma'noni ma'lum darajada kuchaytiradi, orttiradi yoki qisman o'zgartiradi *(mas. aniqlashtiradi)*; ***gelind(e)*** **1)** mo'tadil, issiq ham, sovuq ham emas *(mas. ob-havo haqida)*; sust, kuchsiz *(mas. o't haqida)*; ozgina *(mas. yomg'ir haqida)*; jonini og'ritmasdan, kuchsiz, yengil, yengilgina, salgina, sal *(mas. og'riq haqida)*; yuzaki, jiddiy emas *(mas. tanbeh, hayfsan)* **2)** *so'z. usl.* qattiq, kuchli *(g'azab, qo'rquv)* □ lind, ***gestreng*** qattiqqo'l; qahri qattiq, berahm, shafqatsiz, badjahl *(mas. sud, boshliq haqida)* □ streng, ***getreu*** **1)** *bad.* sadoqatli, sodiq, fidokor *(do'st, xizmat haqida)* **2)** vafodor, vafoli □ treu.

57. **ge-(II)** *sermahsul* prefiks, *shuningdek, kuchsiz fe'llardan sifatdosh II shaklini* -t *suffiksi yordamida yasaydi*

O'zakdan anglashilgan ma'no, belgiga egalik, uning mavjudligini ifodalaydi; ***geblümt*** gulli *(ma'tolar haqida)*; Blume *f*, ***gehörnt*** shoxli, muguzli □ Horn *n*, ***geschweift*** dumli □ Schweif *m*, ***gestiefelt*** etikli; der Gestiefelte Kater etikli (etik kiygan) mushuk □ Stiefel *m*, ***getigert*** xol-xol, olachipor; yo'l-yo'l, ola-bula, olabayroq *(xuddi yo'lbarsdek)* □ Tiger *m*, ***geviert*** to'rtburchakli, kvadratli □ vier.



58. **-ge·mäß** *urg'usiz, kammahsul* yarim suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** O'zakdan anglashilgan ma'noga mos, muvofiq; ***altersgemäß*** <ein Verhalten> yoshga mos, yoshga monand □ Alter *n*, ***auftragsgemäß*** <eine Lieferung> buyurtmaga mos □ Auftrag *m*, ***erfahrungsgemäß*** tajribaga mos □ Erfahrung *f*, ***erwartungsgemäß*** kutilganidek, kutilganiga mos □ Erwartung *f*, ***ordnungs-gemäß*** tartib-qoidaga mos □ Ordnung *f*, ***standesgemäß*** unvon, faxriy nomga mos □ Stand *m*, ***traditionsgemäß*** an'anaga mos, monand □ Tradition *f*, ***vereinbarungsgemäß*** kelishuvga mos □ Vereinbarung *f*, ***wahrheitsgemäß*** <eine Antwort> haqiqatga mos, rostgo'y, to'g'riso'z □ Wahrheit *f*, ***wunschgemäß*** tilak, istakka mos □ Wunsch *m*, ***zeitgemäß*** o'z vaqtida (zarur paytida) bo'ladigan, ayni paytida (mavridida) qilinadigan □ Zeit *f*.

**2.** So'zning o'zagidan anglashilgan ma'noni talab etadigan, kerak qiladigan kabi ma'noni ifodalaydi ≈ -gerecht; ***fachgemäß*** <eine Durchführung> ixtisoslashtirilgan, maxsus, alohida □ Fach *n*, ***fristgemäß*** <eine Lieferung> (o'z) muddatida, belgilangan muddatda, onda Frist *f*, ***sachgemäß*** <eine Reparatur> tegishli, kerakli; lozim (kerak, zarur) bo'lgan □ Sache *f*, ***termingemäß*** kelishilgan, oldindan belgilangan muddatda □ Termin *m*.

59. **-gen** *mahsulsiz* o'zlashma suffiks *<grek.>*

Sifatlarga kelib chiqishi nuqtai nazaridan tavsiflangan xususiyat ma'nosini beradi; ***organogen*** *xim., biol.* organogen □ Organ *n*, ***photogen*** fotobop, suratbop □ Photo *n*, ***autogen*** avtogen □ Autograph *n*, ***endogen*** endogen (ichki sabab yoki tasir bilan vujudga keladigan, ichki) □ Endogamie *f*, ***heterogen*** geterogen tarkibi, kelib chiqishi jihatidan har xil, turli jinsli □ Heteroklisie *f*.

60. **ge·o-** *sermahsul* o'zlashma prefiks *<grek.>, o'zbek tilidagi* geo- *ga to'g'ri keladi*

Terminologik leksikaga qo'shilib, sifatlarga Yer, uni o'rganish bilan bog'liq belgi, xususiyat ma'nosini biradi; ***geochemisch*** geoximiyaga oid; geoximik; geoximiya... □ chemisch, ***geomagnetisch*** geomagnitik; geomagnit... □ magnetisch, ***geophysikalisch*** geofizikaga oid; geofizik; geofizika... □ physikalisch, ***geozentrisch*** geotsentrik □ zentrisch.

61. **-ge·recht** *urg'usiz, kammahsul* yarim suffiks

So'zning o'zagidan anglashilgan ma'noni talab etadigan, kerak qiladigan kabi ma'noni ifodalaydi ≈ -gemäß (2); ***bedarfs-gerecht*** talabni qondiradigan, talabga mos □ Bedarf *m*, ***familiengerecht*** <eine Wohnung> oilaga mos □ Familie *f*, ***fristgerecht*** <eine Lieferung> belgilangan muddatda, muddatga mos □ Frist *f*, ***kindgerecht*** <eine Ausstattung> bolalarga atalgan, bolalar uchun belgilangan; bolalar.. □ Kind *n*, ***maßstabs-gerecht*** <eine technische Zeichnung> masshtabga muvofiq, mos □ Maßstab *m*, ***termingerecht*** <eine Lieferung> ko'rsatilgan, belgilangan muddatda □ Termin *m*.



62. **gold-** *kammahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***goldecht*** *so'z. usl.* butunlay samimiy, sofdil, ochiq ko'ngil □ echt, ***gold-ehrlich*** *so'z. usl.* butunlay halol, pok, vijdonli, to'g'ri; sofdil □ ehrlich, ***goldrichtig*** *so'z. usl.* butunlay to'g'ri, chin, haqqoniy □ richtig.

63. **gott-, gotts-** *sermahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***gottserbärmlich*** *so'z. usl.* juda ayanchli, achinarli, kishini achintiradigan; nochor, ojiz □ erbärmlich, ***gottsjämmerlich*** *so'z. usl.* juda ayanchli, achinarli, kishini achintira-digan; nochor, ojiz □ jämmerlich, ***gottverdammt*** *qo'pol.* lanati, lanatlangan, la'nat o'qilgan □ verdammt, ***gottverflucht*** *qo'pol.* lanati, lanatlangan, la'nat o'qilgan □ verflucht, ***gottvergessen*** Xudo nazaridan qolgan, tashlandiq □ vergessen, ***gottverlassen*** *so'z. usl.* tashlandiq *(qishloq, makonlar haqida)* □ verlassen.

64. **grund-** *urg'uli, kammahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'no juda ko'p miqdorda ekanligini ifodalash uchun qo'llaniladi ≈ sehr, ganz und gar; ***grund-anständig*** juda, o'ta odobli □ anständig,

***grundehrlich*** juda vijdonli, vijdoni pok □ ehrlich, ***grundfalsch*** butunlay xato □ falsch, ***grundgescheit*** juda aqlli □ gescheit, ***grundgütig*** juda, o'ta marhamatli, yaxshi □ gütig, ***grundhässlich*** juda xunuk, badbashara □ hässlich, ***grundschlecht*** juda yomon □ schlecht.

## Hh

65. **haar-** *mahsulli* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***haardünn*** o'ta yupqa, ingichka, sochdek ingichka □ dünn, ***haarfein*** o'ta yupqa, ingichka, sochdek ingichka □ fein, ***haargenau*** *so'z. usl.* o'ta aniq □ genau, ***haarscharf*** *so'z. usl.* 1) juda o'tkir, keskir 2) juda aniq □ scharf.

66. **-haft** *urg'usiz, sermahsul* suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** O'zakdan anglashilgan ma'nodek, unga o'xshashlik ma'nosini ifodalaydi; ***albtraumhaft*** <ein Erlebnis> dahshatli, mudhish, rasvo □ Albtraum *m*, ***automatenhaft*** <jemandes Bewegungen> avtomatik ravishda ishlaydigan, avtomatik, avtomat □ Automat *m*, ***bildhaft*** <eine Darstellung> obrazli, ifodali, jonli, ta'sirli, ta'sirchan □ Bild *n*, ***feenhaft*** <jemandes Aussehen> afsonaviy, fusunkor, jozibali □ Fee *f*, ***märchenhaft*** <schön> ertakona □ Märchen *n*, ***traumhaft*** <schön> zavqlantiradigan, zavqli,



lazzatlantiradigan, rohatlantiradigan, orombaxsh, yoqimli □ Traum *m*.

**2.** O'zakdan anglashilgan ot turi, xilidek degan ma'noni ifodalaydi; ***heldenhaft*** <jemandes Mut> qahramona □ Held *m*, ***meisterhaft*** <Können> mahorat bilan bajarilgan, ustalik bilan qilingan (ishlangan, yasalgan); mohirona, sanatkorona □ Meister *m*, ***rüpelhaft*** <jemandes Benehmen> dag'al, qo'pol, to'ng, xunuk □ Rüpel *m*, ***schalkhaft*** makkorlikka (hiylaga) oid; makrli □ Schalk *m*, ***stümperhaft*** <eine Arbeit> xaltura, xalturadan iborat, pala-partish (naridan-beri, yengil-yelpi) qilingan □ Stümper *m*.

**3.** Nimagadir moyillik ma'nosini ifodalaydi; ***lasterhaft*** axloqsiz, odobsiz, yomon, buzuq □ Laster *n*, ***schwatzhaft*** sergap, ezma, vaysaqi □ schwarz.

67. **halb-** *kammahsul* murakkab sifatning birinchi chastotali komponenti, *ko'p ma'noli*

**1.** Faqat qisman, to'liq emas kabi ma'nolarni ifodalaydi; ***halbautomatisch*** yarim avtomatik; yarim avtomat... □ automatisch, ***halbbitter*** <eine Schokolade> qisman achchiq; biroz taxir □ bitter, ***halblaut*** pichirlab, shivirlab, past ovoz bilan □ laut, ***halbtrocken*** <ein Wein> chala quruq, chala qurigan, nimxush □ trocken.

**2.** O'zakdan anglashilgan vaqt miqdorini yarmini anglatadi; ***halbjährig*** yarim yil mobaynidagi, yarim yillik □ jährig, ***halbjährlich*** yarim yilda bo'ladigan,

yarim yillik □ jährlich, ***halbstündig*** yarim soatlik □ stündig, ***halbstündlich*** har yarim soatda bo'ladigan □ stündlich, ***halbtägig*** yarim kun mobaynidagi, yarim kunlik □ tägig, ***halbtäglich*** har yarim kunda, bir kunda ikki marta bo'ladigan □ täglich.

68. **-hal·tig** *sermahsul* murakkab suffiks

O'zakdan anglashilgan moddani o'z ichiga olgan; ***eisenhaltig*** tarkibida temir bo'lgan, temirli; temir.. □ Eisen *n*, ***goldhaltig*** oltinga boy, oltinli, oltin bor □ Gold *n*, ***nikotinhaltig*** tarkibida nikotin bo'lgan, nikotinli □ Nikotin *n*, ***sauerstoffhaltig*** tarkibida kislorod bo'lgan, kislorodli; kislorod.. □ Sauerstoff *m*, ***zuckerhaltig*** shakar moddasiga boy bo'lgan, shirador □ Zucker *m*.

69. **hei·den-** *mahsulsiz* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***heidenfroh*** *so'z. usl.* juda quvnoq □ froh, ***heidenschnell*** *so'z. usl.* juda tez □ schnell, ***heidenschwer*** *so'z. usl.* juda og'ir □ schwer.

70. **herz-, her·zens-** *sermahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***herzallerliebst*** juda (o'ta) maftunkor, jozibador, sevimli □ allerliebst, ***herzensfroh*** juda xursand, quvnoq, shod □ froh, ***herzensgut*** juda yaxshi, yaxshilikni ayamaydigan, marhamatli, rahmdil, mehribon □ gut, ***herzinnig*** juda



samimiy, dilkash, jonajon □ innig, ***herzergreifend*** juda tasirli, ko'ngilni yumshatadigan, eritadigan, iydiradigan, mehr-shafqatni qo'zg'atadigan; kuchli tasir qiladigan □ ergreifend, ***herzerquickend*** juda dalda beradigan, ko'ngilni (ruhni) ko'taruvchi, tetiklashtiradigan, bahr-dilni ochadigan □ erquickend, ***herzerschütternd*** hayratda qoldiradigan, hayajonlantiradigan, juda ajoyib, g'oyat zo'r □ erschütternd, ***herzgeliebt*** juda sevimli □ geliebt.

71. **he·xa-** [heksa-] *mahsulsiz* o'zlashma prefiks

Olti soni bilan bog'liq bo'lgan maxsus terminlarni hosil qiladi; ***hexaatomar*** *xim.* olti atomli □ atomar, ***hexabasisch*** *xim.* olti asosli □ basisch, ***hexavalent*** *xim.* olti valentli □ valent.

72. **him·mel-** *kammahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***himmelangst*** *so'z. usl.:* es wurde ihm himmelangst **u juda qo'rqdi** □ angst, ***himmelhoch*** juda baland (osmondek baland) □ hoch, ***himmelweit*** juda (erdan osmongacha) uzoq; ulkan, juda katta *(mas. farq to'g'risida)* □ weit.

73. **hoch-** *sermahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi ≈ sehr (stark); ***hochaktuell*** <ein Thema> juda dolzarb □ aktuell, ***hochanständig*** juda, butunlay odobli □ anständig, ***hochbetagt*** <eine Frau, ein Mann> yoshi ulug' □

betagt, ***hochelegant*** juda hashamatli □ elegant, ***hocherfreut-*** juda zavqqa to'lgan, zavqlangan, maftun □ erfreut, ***hochexplosiv*** o'ta portlovchi, portlaydigan □ explosiv, ***hochgebildet-*** juda ko'p o'qigan, o'qimishli, ilmli, donishmand □ gebildet, ***hochgelehrt*** juda bilimdon, bilimli, o'qimishli □ gelehrt, ***hochgeschätzt-*** juda hurmatli, izzatli, aziz, muhtaram □ geschätzt, ***hochgiftig*** o'ta zaharli □ giftig, ***hochintelligent*** juda bilimdon, ilmli □ intelligent, ***hochinteressant*** juda qiziqarli □ interressant, ***hochmodern*** juda zamonaviy, o'taketgan zamonaviy □ modern, ***hochmodisch*** <hochmodisch gekleidet> juda zamonaviy, o'taketgan zamonaviy □ modisch, ***hochoffiziell*** <eine Nachricht> juda rasmiy □ offiziel, ***hochrot*** <ein Kopf> alvon, qirmizi, qizil (och-ochiq qizil) □ rot, ***hochschwanger*** <sein> ikkiqad (tug'ishga so'nggi oy) □ schwanger, ***hochwillkommen*** <ein Gast> uzoq kutilgan, intizor (mushtoq) bo'lib kutilgan □ willkommen, ***hochwirksam*** <ein Gift> yaxshi ta'sir qiladigan, kuchli ta'sirli □ wirksam.

|| Izoh: (-) bilan tugagan sifatlar faqat otlar oldidan kelganda qo'shib yoziladi: *ein hochgebildeter Mann*, ammo: *Er ist hoch gebildet.*

74. **höchst-** *kammahsul sifat va ravish*

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***höchsteigen*** *kin.*: in höchsteigener



*yasovchi* yarim prefiks

Person **mustaqil shaxs** □ eigen, ***höchstmöglich*** **1)** barcha choralar bilan qilingan, bor imkonlardan foydalanib amalga oshirilgan, maksimal, eng ko'p **2)** imkon boricha, barcha choralar (yo'llar) bilan, bor imkoniyatlardan foydalanib, barcha imkoniyatlarni ishga solib, maksimal □ möglich, ***höchstwahrscheinlich*** eng katta ehtimol bilan, yuz berishi (bo'lishi) mumkin bo'lgan, bo'lishi ehtimol tutilgan □ wahrscheinlich.

75. **höl·len-** *kammahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytira-di, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***höllentief*** tagsiz, tubsiz, tagi yo'q; juda chuqur □ tief.

76. **ho·mo-**, *unli harflardan oldin* **hom-** *mahsulsiz* o'zlashma prefiks <*grek.*>

Sifatlarga bir xillik, o'xshashlik, bir xil qiymatga egalik kabi ma'nolarni beradi; ***homofokal*** bir xil fokusli □ fokal, ***homopolar*** *fiz.* gomopolyar □ polar; ***homonym*** *lingv.* omonim, shakldosh □ anonym.

77. **hun·de-**, **hunds-** *sermahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytira-di, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***hundeelend*** *so'z. usl.* o'ta bechora, baxti qaro □ elend, ***hundejung:*** er ist ja noch hundejung *so'z. usl.* u hali juda yosh (ona suti og'zidan ketmagan) □ jung, ***hundekalt*** *so'z. usl.* juda (o'ta) sovuq □ kalt, ***hundemüde*** *so'z. usl.* itdek

charchagan □ müde, ***hundsmager*** *so'z. usl.* juda oriq, ozg'in □ mager.

78. **hyd·ro-** *kammahsul* o'zlashma prefiks *<grek.>*

Sifatlarga suv, suv energiyasi bilan bog'liq ma'nolarni beradi; ***hydroelektrisch*** *fiz.* gidroelektrik; suv elektr... □ elektrisch, ***hydroenergetisch*** gidroenergetik □ energetisch, ***hydrographisch*** *geogr.* gidrografiyaga oid; gidrografik; gidrografiya... □ graphisch, ***hydrotherapeutisch*** *tibb.* gidroterapiyaga oid, suv bilan davolashga oid □ therapeutisch.

79. **hy·per-** [?????-] *urg'uli va urg'usiz, kammahsul* o'zlashma prefiks

O'zbek tiliga «haddan ortiq, o'ta» shaklida tarjima qilinadi ≈ über-³; ***hypergenau*** haddan ortiq, o'ta aniq □ genau, ***hyperkorrekt*** haddan ortiq, o'ta odobli, xushmuomala, xushfe'l, sipo □ korrekt, ***hypermodern*** haddan ortiq, o'ta zamonaviy □ modern, ***hypersensibel*** haddan ortiq, o'ta ta'sirchan □ sensibel.

**Ii**

80. **-i·bel** -abel *o'zlashma suffiksining o'zgargan shakli <lot.-fr.>*

Sifatlarga harakatni bajarishning majhullik ma'nosini, uni o'zakdan anglashilgan ma'no orqali bajarishni anglatadi; ***expansibel*** kengayuvchan, kengaytirish mumkin bo'lgan □ Expansion *f*, ***flexibel*** **1)** egiluvchan, bukiluvchan, qayishqoq, elastik **2** *)gram.* turlanuvchan □ Flexion *f*, ***kompressibel*** *fiz., tex.* siqish, qisish mumkin bo'lgan, qisiladigan, qisiluvchan □ Kompression *f*.



81. **-id** *mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<grek.-lot.>*

Insonning rivojlanish va fiziologik xususiyatlarini tasvirlashda biror belgi, xislatning mavjudligi ma'nosini beradi; ***frigid*** parvoyiga keltirmaydigan, qayg'urmaydigan, beparvo □ Frigen *n*, ***invalid(e)*** yarador, yaralangan, jarohatlangan; mehnat qobiliyatini yo'qotgan, ishga yaroqsiz **morbid 1)** betob, kasal(mand), dardchil; nimjon **2)** chirik, chirigan, irigan; chirib (irib) qolgan; buzilgan; sasigan, aynigan □ Morbus *m*.

82. **-ig** *sermahsul* suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** O'zakdan anglashilgan narsa yoki sifatga ega; ***eifrig*** jonkuyar, jonboz, g'ayratli, serg'ayrat, astoydil □ Eifer *m*, ***fleißig*** tirishqoq □ Fleiß *m*, ***geizig*** xasis, ziqna, qattiq, qurumsoq □ Geiz *m*, ***gierig*** juda ham berilgan, mukkasidan ketgan, o'ch □ Gier *f*, ***mutig*** mard, botir, jasur, qahramon, dovyurak, qo'rqmas □ Mut *m*, ***dreiseitig*** <ein Brief> uch tomonli, uch yoqli, uch tomonga qaragan □ Dreiseit *m*, ***mehrgeschossig*** <ein Haus> ko'p qavatli, qavat-qavat □ Mehrgeschoss *n*, ***vierbändig*** <ein Roman> to'rt tomli.

**2.** O'zakdan anglashilgan narsadek, u kabi; ***affig*** <ein Benehmen> maymunga o'xshash □ Affe *m*, ***bullig*** <eine Figur> buqa(niki)dek kuchli, baquvvat □ Bull *m*, ***flegelig*** <ein Benehmen> behurmatlikni bildradigan (ifodalaydigan), qo'rs, to'rs, qo'pol □ Flegel *m*, ***glasig*** <Augen> shisha ko'rinishidagi, shishaga o'xshash,

shishasimon, shishadek tiniq, shaffof □ Glas *n*, ***milchig*** sut rangidagi, sutsimon oq; xira □ Milch *f*, ***riesig*** g'oyat katta, ulkan, buyuk, zo'r; bahaybat □ Riese *m*, ***schwammig*** bulutsimon, gubkaga o'xshash, g'ovak-g'ovak □ Schwamm *m*.

**3.** O'zakdan anglashilgan narsa shaklida; ***bergig*** tog'simon, tog'li □ Berg *m*, ***bröselig*** ushoqsimon, ushoqli □ Brösel *m*, ***klumpig*** serkesak, kesakli, kesak-kesak, yumaloq-yumaloq, qumoq-qumoq □ Klump *m*, ***kugelig*** sfera (shar) shaklidagi, sferik, sharsimon, dumaloq, yumaloq, qubba, sfera.. □ Kugel *f*.

83. **il-** o'zlashma prefiks; ↓in-

84. **im-** o'zlashma prefiks; ↓in-

85. **in-** *urg'uli, kammahsul* o'zlashma prefiks, *yozma usl.*

Shaxs yoki predmet so'z yasalishi asosidan anglashilgan narsaga, belgiga, xususiyatga ega emasligini bildiruchi sifat yasaydi; ***inakzeptabel*** <ein Vorschlag> to'g'ri (muvofiq) kelmaydigan, qabul qilib (ko'nib, rozi bo'lib) bo'lmaydigan, nomaqbul □ akzeptabel, ***indiskret*** <eine Frage> beadab, uyatsiz, hayosiz, orsiz □ diskret, ***inhuman*** <eine Behandlung> g'ayriinsoniy, vahshiyona, shafqatsiz, rahmsiz □ human, ***inkonsequent*** <ein Verhalten> izchil bo'lmagan, izchil (tadrijiy) emas, bog'lanishsiz, poyma-poy □ konsequent, ***instabil*** <eine Lage> turg'un emas, omonat, bo'sh, noustuvor □ stabil.

|| Izoh: **a)** ***in-*** chetdan o'zlashgan so'zlar bilan keladi;

**b)** *l* bilan boshlangan so'zlar oldidan, ***il-*** *(mas. illegal)* shaklida, *m* yoki *p* bilan boshlangan so'zlar oldidan ***im-*** *(mas. immateriell, impotent)* shaklida, *r* bilan boshlangan so'zlar oldidan ***ir-*** *(mas. irreal)* shaklida keladi.

86. **in·fra-** *mahsulli* o'zlashma prefiks *<lot.>*

O'zakdan anglashilgan ma'noni nimaningdir ostida, undan pastida joylashganini bildiradi; ***infrarot*** infraqizil nurlar (spektrning qizil tusli qismiga yondosh, ko'zga ko'rinmaydigan nurlar) □ rot.

87. **in·ter-** *kammahsul* o'zlashma prefiks, *ko'p ma'noli*

**1.** O'zakdan anglashilgan narsa, makon, joy, shahar *va sh.k.* larni bog'laydigan; ***interdisziplinär*** <Gespräche> fanlararo □ disziplinär, ***intermolekular*** <Kräfte> molekulalararo □ molekular, ***international*** millatlararo □ national.

**2.** Ikki yoki undan ortiq predmet, hodisalar o'rtasida (joylashgan); ***interplanetarisch*** <der Raum, die Materie> planetalararo, planetalar oralig'idagi □ planetarisch, ***interstellar*** <der Raum, die Materie> yulduz-lararo, yulduzlar oralig'idagi □ stellar.

88. **-isch** *sermahsul* suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** Kim/nimaga oid, taalluqli, xos, aloqadorlikni ifodalaydi; ***arabisch*** arablarga, arab xalqiga oid; arabcha; arabi, arabiy, ***bayrisch*** Bavariya xalqiga xos; bavariyacha, ***griechisch*** Gresiyaga va greklarga oid; Gresiya...; grek(lar)..., ***russisch*** ruslarga oid; rus.., ***schwäbisch*** shvablarga oid, xos, ***spanisch*** Ispaniyaga va ispanlarga oid; Ispaniya...; ispan(lar)... *va sh.k.*; ***atheistisch*** ateizm ruhidagi, ateistik □ Atheist *m*, ***biologisch*** biologiyaga oid; biologik, biologiya... □ Biologie *f*, ***kaufmännisch*** savdo-sotiqqa oid; savdo... □ Kaufmann *m*, ***modisch*** modali, rasm bo'lgan □ Mode *f*, ***psychisch*** psixik, ruhiy □ Psyche *f*, ***studentisch*** studentlarga oid; student (lar)...; studentlik □ Student *m*.

**2.** Xuddi kim/nimadek, kabi, singari; ***anarchistisch*** anarxistlarga oid; anarxistlar uchun xos bo'lgan, anarxistlarcha; anarxist(lar).. □ Anarchist *m*, ***angeberisch*** chaqimchilarga (gap tashuvchilarga) oid; xos, chaqimdan (chaquvdan, g'iybatdan) iborat □ Angeber *m*, ***dämonisch*** iblisga (shaytonga) oid; iblisona... □ Dämon *m*, ***diktatorisch*** yakka hokmiyatchilikka, diktatorlikka asoslangan; diktatorlik... □ Diktator *m*, ***puristisch*** purizm va puristlarga oid; puristik, purist.. □ Purist *m*, ***tyrannisch*** zolimlarcha, jabr-zulmga asoslangan □ Tyrann *m*.

|| Izoh: *-ist(in)* bilan tugagan otlarga - *istisch* shaklida qo'shiladi.



89. **ir-** o'zlashma prefiks; ↑in-

90. **-iv** [-???] *urg'uli, kammahsul* o'zlashma suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** O'zakdan anglashilgan ma'lum belgiga, xususiyatga egalikni ifodalaydi; ***aggressiv*** agressiyaga, tajovuzkorlikka, bosqinchi-likka asoslangan, agressiya yo'lini tutuvchi, agressiv, tajovuzkor, bosqinchi □ Agression *f*, ***depressiv*** ruhi tushgan, g'amgin, mayus □ Depression *f*, ***explosiv*** portlovchi, portlaydigan □ Explosion *f*, ***kooperativ*** hamkor, kooperativga oid, qarashli; kooperatsiya asosidagi; kooperativ... Kooperation *f*, ***produktiv*** mahsuldor, sermahsul, sermahsul, mahsuldor, ser-mahsul; sernatija □ Produktion *f*.

**2.** Nimagadir aloqadorlikni ifodalaydi; ***qualitativ*** sifatiy, sifat... □ Qualität *f*, ***quantitativ*** songa, miqdorga oid; son (miqdor) jihatidan; miqdoriy □ Quantität *f*.

**3.** Ma'lum xossa, xususiyatni ifodalaydi; ***attributiv*** ta'riflarni (aniqlovchi ma'lu-motlarni) o'z ichiga olgan, ta'rifli, aniqlovchi □ Attribut *n*, ***föderativ*** ittifoq azolariga (ittifoqchilarga) oid; ittifoqqa kiradigan, ittifoqdagi, itti-foqchi(lar)... □ Föderation *f*.

## Kk

91. **knall-** *kammahsul* yarim prefiks, *so'z. usl.*

O'zakdan anglashilgan rang yorqin, yarqiroq ekanligi hamda to'q, quyuq rang sochishini anglatadi; ***knallgelb*** yorqin (to'q) sariq □ gelb, ***knallgrün*** yorqin (to'q) yashil □ grün, ***knallorange*** yorqin to'q sariq, apel'sin rang □ orange, ***knallrosa*** yorqin pushti rang □ rosa, ***knallrot*** yorqin qizil □ rot, ***knallbunt*** yorqin guldor, rang-barang □ bunt.

92. **kern-** *mahsulli* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytira-di, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***kernbrav*** butunlay halol, pok, vijdonli, to'g'ri; tartibli □ brav, **kerndeutsch** asl nemischa □ deutsch, ***kerngesund*** butunlay sog'lom, soppa-sog' □ gesund.

93. **kno·chen-** *mahsulli* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytira-di, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***knochendürr*** juda oriq, ozg'in □ dürr, ***knochenhart*** juda qattiq □ hart, ***knochentrocken*** *so'z. usl.* juda quruq, qurigan □ trocken.

94. **kon-**, h *va unlilar oldidan* **ko-**, r *dan oldin* **kor-**, l *dan oldin* **kol-**, b, r, m *dan oldin* **kom-** *mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<lot.>*

Sifatlarga birgalik, birlashish ma'no-larini beradi; ***koaxial*** konsentrik (bitta umumiy markazga ega bo'lgan); koalitsiyaga oid, koalitsiya (ittifoq) asosida tuzilgan; koalitsiyaga kiradigan, koalitsion; koalitsiya... □ axial, ***koinzident*** bir-biriga mos, to'g'ri (ro'para, duch) keladigan, ayni bir vaqtda sodir bo'ladigan □ inzident, ***kongenial*** kongenial (ruhi, fikri,



iste'dodi jihatdan bir xil, o'xshash, mos) □ genial, ***komplex*** to'la-to'kis, kompleks (uyg'un birlik) tashkil qilgan; kompleks ravishdagi, kompleks...

95. **-kräf·tig** *urg'usiz, kammahsul* yarim suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** (Yuqori darajada) nimagadir qodir, qobiliyatli ekanlikni anglatadi; ***heilkräftig*** <eine Pflanze> shifobaxsh, shifoli, davo bo'ladigan; dorivor □ heilen, ***kaufkräftig*** <ein Kunde> sotib olishga qodir □ kaufen, ***zahlungskräftig*** to'lashga qodir (qurbi yetadigan) □ zahlen.

**2.** O'zakdan anglashilgan ma'no ko'p miqdorda yoki katta ta'sirga ega; ***aussagekräftig*** ifodali, jonli, manoli, manodor □ aussagen, ***beweiskräftig*** asosli, ishonchli, dalil bo'la oladigan □ beweisen, ***finanzkräftig*** davlatmand, boy, badavlat □ Finanz *f*, ***kapitalkräftig*** moliyaviy qudratga ega, ulkan kapitalga ega □ Kapital *n*.

96. **kreuz-** *sermahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytira-di, uning ta'sirchanligini oshiradi; ***kreuzbrav*** *so'z. usl.* **1)** juda gapga kiradigan, quloq soladigan, itoat qiladigan, bo'ysunadigan, itoatkor, mo'min, qobil **2)** *esk.* juda jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak; yurakli, jasoratli, juratli *(askarlar to'g'risida)* **3)** juda halol, pok, vijdonli, to'g'ri, tartibli □ brav, ***kreuzdumm*** *so'z. usl.* aqli noqis, miyasi yo'q, o'ta esi past, kaltafahm □ dumm,

***kreuzehrlich*** *so'z. usl.* juda halol, pok, vijdonli, sofdil □ ehrlich, ***kreuzfidel*** *so'z. usl.* xushchaqchaq, juda sho'x □ fidel, ***kreuzgefährlich*** *so'z. usl.* o'ta xavfli □ gefährlich.

## Ll

| | | |
|---|---|---|
| 97. | **-lei** *son sifat, asosan aniq., turlanmas, kammahsul* suffiks, *ko'p ma'noli* | **1.** Turli shaxs, predmetlarning ma'lum sonini anglatadi; ***einerlei*** bir xil, baravar, teng, birdek □ einer, ***zweierlei*** ikki taraflama, ikki tomonlama, ikki yoqlama; ikki turli, ikki xil □ zwei, ***dreierlei*** uch xil, uch turli □ drei, ***viererlei*** to'rt xil, to'rt turli □ vier, ***fünferlei*** beshxil, besh turli □ fünf.<br><br>**2.** Turli shaxs yoki predmetlarning ma'lum miqdori yoki turini anglatadi; ***beiderlei*** ikki taraflama, ikki tomonlama, ikki yoqlama; ikki turli, ikki xil □ beide, ***derlei*** bu (shu) xildagi, bunday, shunday, bunga (shunga) o'xshash (o'xshagan) □ der, ***keinerlei*** hech, hech qanday, hech qanaqa, hech bir, hech qaysi □ kein, ***mancherlei*** har xil, turli, turlicha, bir-biriga o'xshamagan, boshqa-boshqa, turli-tuman □ manch, ***solcherlei*** shunday, shunaqa □ solch, ***tausenderlei*** har xil, turli, bir-biridan farq qiladigan, boshqa-boshqa □ tausend, ***verschiedenerlei*** turli xil, har xil □ verschieden. |



| | | |
|---|---|---|
| 98. | **-leer** *cermahsul* yarim prefiks, *ko'pincha o'zbek tilidagi* -siz, be- *qo'shimchalarga to'g'ri keladi* | O'zakdan anglashilgan ma'no, belgining nimadadir yo'qligini, mavjud emasligini bildiradi *(ba'zan bog'lovchi element qo'shiladi);* ***ausdrucksleer*** ifodasiz □ Ausdruck *m* -s, ..drücke, ***blutleer*** qonsiz □ Blut *n*, ***gedankenleer*** mazmunsiz, ma'nosi yo'q, g'oyasiz □ Gedanke *m* -ns, -n, ***inhalt(s)leer*** bema'ni, mazmunsiz, ma'nosi yo'q, suyuq, puch, sayoz □ Inhalt *m* -s, -e, ***luftleer*** *fiz.* havosiz, vakuumli □ Luft *f*, ***menschenleer*** aholisiz, aholisi yo'q, odam (aholi) yashamaydigan, kishi qadami yetmagan □ Mensch *m* -en, -en, ***wasserleer*** suvsiz □ Wasser *n*. |
| 99. | **-lich** *sermahsul* suffiks, *ko'p ma'noli* | **1.** Fe'llarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan harakat-holatni bajarish mumkinligini ifodalaydi; ***begreiflich*** <ein Irrtum> (≈ so, dass er begriffen/ verstanden werden kann) tushunarli, tushunib bo'ladigan, tushuniladigan □ begreifen, ***bestechlich*** <ein Polizist> poraga uchadigan, sotiladigan, sotqin □ bestechen, ***erträglich*** <Schmerzen> qanoatlansa (chidasa) bo'ladigan, bir navi, baharnav, durust, uncha yomon emas □ ertragen, ***verzeihlich*** <ein Fehler> kechirarli, uzrli, kechirsa bo'ladigan □ verzeihen.<br><br>**2.** un- + fe'l o'zagiga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan harakat-holatni bajarish imkoniyatsiz ekanligini ifodalaydi; ***unauflöslich*** <eine Verbindung> (≈ so, dass sie nicht aufgelöst werden kann) buzilmas, buzilmaydigan, bekor |

qilinmaydigan, bekor qilib bo'lmaydigan □ auflösen, ***unbeschreiblich*** <Freude> tasvirlab bo'lmaydigan, ta'rifga sig'maydigan, til (qalam) ojizlik qiladigan □ beschreiben, ***unerklärlich*** <ein Fehler> tushuntirib (tushunib) bo'lmaydigan □ erklären.

**3.** Fe'l o'zagi yoki otlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan ma'no ta'sirga ega yoki shuni keltirib chiqaradi; ***abscheulich*** <ein Anblick> (≈ so, dass er Abscheu hervorruft) jirkantiradigan, nafratni qo'zg'aydigan, juda xunuk, juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz □ abscheuen, ***ärgerlich*** <ein Missverstdndnis> g'azablangan, achchiqlangan, asabiylashgan, qoni (zardasi) qaynagan, darg'azab □ ärgern, ***bedrohlich*** <eine Situation> do'q (tahdid) qiladigan, do'q (tahdid)ni ifodalaydigan □ bedrohen.

**4.** Kim/nimagadir tegishli, aloqadorlik ma'nosini anglatadi; ***beruflich*** <Erfahrung> kasbga oid; kasb bilan bog'liq, kasbni, kasb.. □ Beruf *m*, ***elterlich*** <das Haus> ota-onaga oid; ota-ona (lar)... □ Eltern *pl*, ***fremdsprachlich*** <Unterricht> boshqa tilga oid, mansub, xos; boshqa tildagi □ Fremdsprache *f*, ***kirchlich*** <Besitz> cherkovga oid, cherkovda bo'ladigan; cherkovga xizmat qiladigan, cherkov... □ Kirche *f*.

**5.** Xuddi kim/nimaningdir turida, xilida ekanlik ma'nosini anglatadi; ***freundlich*** <ein Gruß> iltifotli; nazokatli,



xushmuomala, shirin so'z □ Freund *m*, ***herbstlich*** <Wetter> kuzgi, kuzda bo'lgan (bo'ladigan); kuz.. □ Herbst *m*, ***kindlich*** <ein Gemüt> bolalarga xos bo'lgan; bolalar... □ Kind *n*, ***väterlich*** <ein Freund> otaga oid, tegishli, otaniki; ota... □ Vater *m*.

**6.** O'zakdan anglashilgan ma'noga to'lalik ma'nosini anglatadi; ***ängstlich*** <ein Blick> hadikli, qo'rquvli, hadiksiragan, qo'rqinch ifodalovchi □ Angst *f*, ***glücklich*** <eine Zeit> baxtli, omadli, baxtiyor, iqboli (tolei) baland □ Glück *n*, ***leidenschaftlich*** <Liebe> serzavq, qizg'in, jo'shqin, otashin, kuchli, qattiq, zo'r; ehtirosli □ Leidenschaft *f*, ***schmerzlich*** <ein Verlust> o'ta achinarli, qayg'uli, hasratli □ Schmerz *m*.

**7.** Ma'lum sifat, belgilarga ega, muayyan holatda ekanlik ma'nosini anglatadi; ***fröhlich*** <Menschen> shod, xursand, vaqti (kayfi, dimog'i) chog'; quvnoq, xushchaqchaq, xushtabiat, masrur, ochik □ froh, ***jung-fräulich*** <ein Mädchen> iffatli, ma'sum, bokira □ Jungfrau *f*, ***männlich*** <ein Kind> erkaklarga oid; erkaklarga mansub (taalluqli) bo'lgan; erkaklardan iborat; erkak... □ Mann *m*, ***ungeheuerlich*** <eine Frechheit> dahshatli, qo'rqinchli □ ungeheuer.

**8.** O'zakdan anglashilgan belgini sustlashtiradi, kamaytiradi, kuchsizlantiradi ≈ fast, etwas; ***ältlich*** <eine Frau> yoshi qaytgan, qariy boshlagan □ alt, ***gelblich*** <Haut> sarg'ish, sariqqa moyil,

sariqroq □ gelb, ***dümmlich*** <ein Grinsen> tentaknamo, ahmoqroq □ dumm, ***länglich*** <ein Gesicht> cho'zinchoq, uzunchoq □ lang.

**9.** O'zakdan anglashilgan belgi, xususiyat shaklida ekanlik ma'nosini anglatadi; ***länglich*** <ein Gesicht> cho'ziq, uzun; uzunchoq □ lang, ***rundlich*** <eine Figur> yumaloq, dumaloq, yumaloq shaklli □ rund.

**10.** O'zakdan anglashilgan vaqt oralig'ida nimadir takrorlanishini ifodalaydi; ***halbjährlich*** yarim yilda bo'ladigan, yarim yillik □ Halbjahr *n*, ***stündlich*** har soatda bo'ladigan, soatlik □ Stunde *f*, ***täglich*** har kungi, har kuni bo'ladigan (qilinadigan), kundalik □ Tag *m*.

100. **-los** *sermahsul* yarim suffiks

O'zakdan anglashilgan ma'noga ega emaslikni anglatadi; ***arbeitslos*** ishsiz, ishdan mahrum qilingan, ishsiz bo'lib qolgan □ Arbeit *f*, ***chancenlos*** umidsiz, ishonchsiz, noumid □ Chance *f*, ***gewissenlos*** or-nomusni bilmaydigan, vijdonsiz, insofsiz, uyatsiz, benomus, noinsof; vijdonsizlarcha qilingan □ Gewissen *n*, ***glücklos*** bebaxt, badbaxt, baxtsiz, baxti qora, tolei past; sho'rpeshana, sho'rli □ Glück *n*, ***respektlos*** hurmat qilishni (hurmatni) bilmaydigan, izzat-hurmat qilmaydigan □ Respekt *m*, ***sinnlos*** ma'no ifodalamaydigan, ma'nosi yo'q, ma'nosiz; mazmunsiz □ Sinn *m*, ***verantwortungslos*** mas'uliyatni his qilmaydigan, javobgar-likni sezmaydigan, beparvo; mas'uliyat-sizlik bilan qilingan □ Verantwortung *f*, ***ziellos*** maqsadsiz □ Ziel *n*, ***zwecklos*** bemaqsad, foydasiz, behuda, bekoraki □ Zweck *m*.

|| Izoh ↑-frei



101. **-lus·tig** *kammahsul* murakkab suffiks

Kimdir o'zakdan anglashilgan narsani jon deb, bajonu-dil bajarishini, bajargan bo'lishini ifodalaydi; ***abenteuerlustig*** sarguzashtparast, sarguzashtga ishqiboz □ Abenteuer *n*, ***angriffslustig*** agressiv, tajovuzkor, bosqinchi □ Angriff *m*, ***kampf(es)lustig*** jangovar, qahramon □ Kampf *m*, ***kauflustig*** sotib olishga ishqiboz, xohlovchi □ Kauf *m*, ***lebenslustig*** xushchaqchaq, quvnoq, shodmon □ Leben *n*, ***reiselustig*** sayohatga ishqiboz □ Reise *f*, ***schaulustig*** har narsani bilishga intiluvchi, qiziquvchi, har narsaga qiziqib qaraydigan □ Schau *f*, ***streitlustig*** janjalkash □ Streit *m*, ***unternehmungslustig*** uddaburon, epchil, tashabbuskor □ Unternehmung *f*.

## Mm

102. **mak·ro-** *kammahsul* o'zlashma prefiks *<grek.>*

Katta bir soha, makonga aloqador ↔ mikro; ***makrokosmisch*** makrokosmosga oid; makrokosmosdagi; makrokosmik; makro-kosmos.. □ kosmisch.

103. **-ma·lig** *kammahsul* murakkab suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** Nimadir o'zakdan anglashilgan son, miqdorga teng marotaba sodir bo'lishini ifodalaydi; ***einmalig*** bir marta bo'lgan, bo'ladigan, bir karrali, bir safar □ ein, ***zweimalig*** ikki marta ortiq, ikki baravar ko'p; ikki marta, ikki karra, ikki hissa □ zwei, ***dreimalig*** uch marta, uch karra □ drei, ***mehrmalig*** ko'p karrali, bir necha bor (qayta-qayta) takrorlangan, takror-takror, qayta-qayta □ mehr, ***oftmalig*** tez-tez takrorlanib turadigan; ketma-ket (ustma-ust) bo'lib turadigan □ oft: *eine viermalige Wiederholung*/ **to'rt karra takrorlash.**

**2.** Nimadir o'zakdan anglashilgan marotabada sodir bo'lishini anglatadi; ***erstmalig*** dastlabki, oldingi, birinchi, ilk □ erst, ***diesmalig*** hozirgi, shu paytdagi, shu topdagi, hozirgi vaqtdagi □ dies, ***nochmalig*** ikkinchi marta qilingan, takrorlangan, qaytalangan; takroriy □ noch, ***letztmalig*** oxirgi, keyingi, so'nggi □ letzt: *Der diesmalige Sieger kommt aus Leipzig*/ **Ushbu (hozirgi) g'olib Laypsikdan tashrif buyurgan.**

104. **-mä·ßig** *sermahsul* murakkab suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** O'zakdan anglashilgan narsaga mos, muvofiq kabi ma'nolarni ifodalaydi; ***planmäßig*** rejali, reja asosida (reja bilan) qilinadigan □ Plan *m*, ***rechtmäßig*** qonuniy, qonunga muvofiq, qonunga asoslangan, qonun asosidagi □ Recht *n*, ***vorschriftsmäßig*** buyruq, farmoyish, amrga ko'ra, muvofiq □ Vorschrift *f*.



**2.** O'zakdan anglashilgan narsaga aloqador, bog'liq kabi ma'nolarni ifodalaydi; ***bedeutungsmäßig*** mazmunga, ma'noga oid; mazmun jihatidan; mazmuniy □ Bedeutung *f*, ***größenmäßig*** hajmga oid; hajmiy □ Größe *f*, ***mengenmäßig*** songa, miqdorga oid; son jihatidan; miqdoriy □ Menge *f*.

**3.** Xuddi o'zakda aytilgan shaxs yoki narsa kabi ma'nolarni ifodalaydi ≈ -artig, -haftig; ***bärenmäßig*** <Kräfte> ayiqdek, ayiqnamo □ Bär *m*, ***lehrbuchmäßig*** <ein Stil> darslik(dagi)dek □ Lehrbuch *n*.

**4.** O'zakdan anglashilgan mazmunga taaluqli kabi ma'nolarni ifodalaydi; ***kinomäßig*** kinoga oid; kino... □ Kino *n*, ***partymäßig*** o'tirish, kechaga oid; o'tirish..., kecha... Party *f*, ***schulmäßig*** o'quvchilarga oid; o'quvchilar... □ Schule *f*.

105. **mäus·chen-, mau·se-, mäu·se-** *sermahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytiradi, ta'sirchanligini orttiradi; ***mäuschenstill*** *haz.* butunlay (suv qo'ygandek) jim-mit □ still, ***mausearm*** *so'z. usl.* juda kambag'al, qashshoq, nochor, bechorahol, faqir □ arm, ***mauseflink, mäuseflink*** *so'z. usl.* juda tez, chaqqon □ flink, ***mauselebendig*** *so'z. usl.* tip-tirik □ lebendig.

106. **ma·xi-** ['maksi-] *kammahsul*

O'zakdan anglashilgan belgining katta o'lchov (razmer)da ekanligini ko'rsatadi;

| | | |
|---|---|---|
| | o'zlashma prefiks *<lot.>* | ***maxilang*** juda [haddan ziyod] uzun □ lang. |
| 107. | **mik·ro-** *sermahsul* o'zlashma prefiks, *<grek.>* | Sifatlarga juda kichik miqdor ma'nosini, shuningdek, juda kichik miqdorlar bilan bog'liq tushunchalar ma'nosini beradi; ***mikrobiologisch*** mikrobiologik □ biologisch, ***mikrochemisch*** mikroximik, mikrokimyoviy □ chemisch, ***mikroseismisch*** mikroseysmik □ seismisch. |
| 108. | **miss-** *kammahsul* prefiks | Yomon yoki xatolari mavjud kabi ma'nolarni anglatadi ↔ gut-, wohl-; ***missgelaunt*** yomon kayfiyat(dagi)li, ***missgestimmt*** yomon kayfiyat(dagi)li, ***misstönend*** <eine Gitarre> ohangsiz, hamohang bo'lmagan, quloqqa yoqmaydigan, ***missverständlich*** <eine Formulierung> munozarali, tushunarsiz. |
| 109. | **mo·no-** *kammahsul* o'zlashma prefiks, *yozma usl.* | Faqat bir, bitta, yagona kabi ma'nolarni anglatadi ↔ poly-; ***monochrom*** (mit einer Farbe) <eine Aufnahme, ein Bildschirm> bir rangdagi, bir xil rangli, bir xil tusli, sidirg'a (rang) □ Chrom *n*, ***monolithisch*** (aus einem Stück) <ein Felsblock> yaxlit, birbutun □ lithisch, ***monotheistisch*** (mit einem Gott) <eine Religion> monoteizmga, birxudolikka asoslangan, monoteistik, bir xudoli; xudoni bitta deb biluvchi, bir xudoga ishonuvchi □ theistisch. |



| | | |
|---|---|---|
| 110. | **mords-** *sermahsul* yarim prefiks | O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytira-di, ta'sirchanligini orttiradi; ***mords-dumm*** *so'z. usl.* o'ta ahmoq, kaltafahm □ dumm, ***mordsfidel*** *so'z. usl.* xushchaqchaq, juda sho'x □ fidel, ***mordsgescheit*** *so'z. usl.* juda zehni o'tkir, o'tkir zehnli, aqlli, idroqli, bilag'on □ gescheit, ***mordsgroß*** *so'z. usl.* juda katta, ulkan □ groß. |
| 111. | **-morph** *mahsulsiz* o'zlashma suffiks *<grek.-lot.>* | Sifatlarga jonsiz narsalarning, hodisalarning xususiyatlari ma'nosini beradi; ***anthropomorph*** odamga o'xshay-digan, odamsimon □ Anthropologie *f*, ***heteromorph*** *xim.*, getero-morf □ Heteroklisie *f*, **isomorph** *fiz., xim., mat.* izomorf (izomorfizm xususiyatiga ega-) □ isomer *Adj.*. |
| 112. | **mul·ti-** *mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<lot.>* | Sifatlarga ko'p marotabalik, takror-takrorlik ma'nosini beradi; ***multilateral*** ko'p yoqli □ lateral, ***multilinear*** sertarmoq, ko'ptarmoqli □ linear, ***multipolar*** ko'p qutbli □ polar, ***multivalent*** ko'p valentli □ valent, ***multipel, multiplex*** ko'p karrali, bir necha bor (qayta-qayta) takrorlangan, takror-takror, qayta-qayta. |
| 113. | **-mü·tig, -mu·tig** *sermahsul* | Inson xulq-atvori, hatti-harakatini ifodalashda o'zakdan anglashilgan ma'no, belgiga egalikni bildiradi; |

murakkab suffiks — ***heldenmütig*** qahramon (botir) odamlarga xos bo'lgan, qahramonlik bilan qilingan; qahramonona, botirona, mardonavor □ Held *m* -en, -en, ***kampfesmütig*** jangovar, qahramon □ Kampf *m* -es, *pl* Kämpfe, ***todesmutig*** o'limdan qo'rqmas □ Tod *m* -es, ***wehmütig*** g'amga botgan, xafa, g'amgin, ma'yus □ Weh *n*; ***edelmütig*** *bad.* fidokor, jonboz; fidokorlik bilan qilingan, fidokorona □ edel, ***sanftmütig*** yuvosh, beozor, mo'min-qobil, royish, muloyim, yumshoq □ sanft.

## N

114. **nach-** *mahsulsiz* yarim prefiks — Sifatlarga vaqt nuqtai nazardan nimadandir keyin, nimaningdir ortidan bo'lish ma'nosini beradi; ***nachchristlich*** Rojdestvodan keyin □ christlich, ***nachklassisch*** klassik davrdan keyingi □ klassisch.

115. **ne·o-** *sermahsul* o'zlashma prefiks *<grek.>* — Sifatlarga yangilik, qayta paydo bo'lish, yangilanish, yangi, o'zgargan shaklda davom etish kabi ma'nolarni beradi; ***neofaschistisch*** *neol.* neofashizmga va neofashistlarga oid; neofashizm... □ faschistisch, ***neonazistisch*** *neol.* neonatsizmga va neonatsistlarga oid; neonatsizm .. □ nazistisch, ***neorealistisch*** *neol.* neorealistik □ realistisch.



116. **nie·der-** *mahsulli* murakkab sifatning birinchi chastotali komponenti — O'zakdan anglashilgan ma'noning eng pastki darajali qiymatda ekanligini ifodalaydi; ***niederfrequent*** *radio* past chastotali □ frequent, ***niedermolekular*** *xim.* past molekulyar □ molekular.

## Oo

117. **o·ber-** *kammahsul* yarim prefiks, *so'z. usl* — O'zakdan anglashilgan belgini (asosan, salbiy) kuchaytiradi, oshiradi; ***oberblöd*** o'ta , juda aqli kam, aqli past (zaif) □ blöd, ***oberfad*** **1** mazasi, ta'mi yo'q, mazasiz, ta'msiz, bemaza; **2** didi yo'q, didsiz □ fad, ***oberfaul*** <eine Sache> **1** o'ta yalqov, dangasa, tanbal, ishyoqmas; **2** o'ta erinchoq, imillagan, lanj, sust; **3** o'ta tezlik bilan (naridan-beri) tayyorlangan, juda tez pishirilgan, soldi-pishdi □ faul, ***obermies*** o'ta yomon, o'ta sifati past, buzuq □ mies.

118. **-o·id** *kammahsul* o'zlashma prefiks *<grek.>* — O'zakdan anglashilgan narsadek degan ma'noni ifodalaydi; ***faschistoid*** <ein Politiker, Ansichten> fashistlashayotgan, fashistlashib boruvchi, fashistona □ Faschist *m*, ***humanoid*** <ein Lebewesen> insoniy □ human, ***negroid*** <Gesichtszüge> negroid □ Neger *m*.

119. **-ös** *otlarga qo'shilib keladi,* — O'zakdan anglashilgan narsa ko'p miqdorda yoki jadallikda mavjudligini

*kammahsul* o'zlashma suffiks *<lot. -fr.>* — ifoda-laydi; ***luxuriös*** <eine Wohnung> dabdabali, hashamatli, ziynatli, muhtasham □ Luxus *m*, ***melodiös*** <eine Stimme> xushohang, ohangdor, yoqimli □ Melodie *f*, ***muskulös*** <ein Mann> muskullari rivojlangan, chiqqan, baquvvat □ Muskel *m*, ***mysteriös*** <eine Angelegenheit> sirli, maxfiy; ajib □ Mzsterium *n*, ***strapaziös*** <eine Reise> charchatadigan, zeriktiradigan □Strapaze *f*, ***voluminös*** <ein Buch> hajmi katta, kattakon, hajmdor □ Volum *n*.

## Pp

120. **pa·läo-** *mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<grek.>* — Sifatlarga uzoq o'tmish bilan bog'liklik ma'nosini beradi; ***paläoarktisch*** paleoarktik □ arktisch, ***paläobotanisch*** paleobotanik □ botanisch.

121. **pan-** *mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<grek.>* — Sifatlarga umumiylik ma'nosini beradi; ***panafrikanisch*** panafrikancha □ afrikanisch, ***panarabisch*** panarabcha □ arabisch, ***panchromatisch*** panxromatik □ chromatisch, ***pantheistisch*** panteizmga oid; panteistik... □ theistisch.

122. **pech-** *kammahsul* yarim prefiks — O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, orttiradi, ta'sirchan-ligini oshiradi; ***pechdunkel*** *so'z. usl.* butunlay qorong'i, qop-qorong'i □ dunkel, ***pechfinster*** *so'z. usl.* butunlay qorong'i,



qop-qorong'i □ finster, ***pechschwarz*** *so'z. usl.* qora saqichdek qora, qop-qora □ schwarz.

123. **pfunds-** *mahsulsiz* yarim prefiks — O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, orttiradi, ta'sirchan-ligini oshiradi; ***pfundsdick*** *so'z. usl.* juda yug'on, semiz, qalin □ dick.

124. **-phil** [-?????] *kammahsul* o'zlashma suffiks, *yozma usl.* *<grek.>* — Kim/nima biror narsani, xalqni v.b. yoqtirishi yoki uni afzal ko'rishini ifodalash uchun ishlatiladi ↔ -phob; ***anglophil*** Angliyaga va inglizlarga xos barcha narsalarni yoqlovchi (odam) □ Anglomane *m*, ***frankophil*** Fransiyaga va fransuzlarga xos barcha narsalarni yoqlovchi (odam), ***germanophil*** Germaniyaga va nemislarga xos barcha narsalarni yoqlovchi (odam); ***bibliophil*** (≈bücherliebend) kitob ixlosmandi, jinnisi □ Bibliothek *f*, ***hydrophil*** (≈wasserliebend) <eine Pflanze> suvni xush ko'ruvchi □ Hydrograph *m*.

125. **piek-** *kamahsul* yarim prefiks — O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, orttiradi, ta'sirchanligi-ni oshiradi; ***piekfein*** *so'z. usl.* nazokatli, latofatli, nozik, nafis, go'zal □ fein, ***pieknobel*** *og'z.* **1)** juda mashhur **2)** juda saxiy, qo'li ochiq, saxovatli, olihimmat, hotamtoy □ nobel,

***pieksauber*** *so'z. usl.* juda ozoda, toza, pokiza □ sauber.

126. **po·ly-** *kammahsul* o'zlashma prefiks *<grek.>, faqat texnikaga oid birliklar bilan birga keladi* — Ko'p, bir necha kabi ma'nolarni ifodalaydi ≈ viel(e), mehrere ↔ mono-; ein ***polychromer Bildschirm*** (ein Bildschirm mit mehreren Farben) | **polixrom, ko'p rangli, rang-barang monitor.**

127. **post-***kammahsul* o'zlashma prefiks, *<lot..>, yozma usl.* — Nimadir o'zakdan anglashilgan vaqt birligi, bosqichi va sh.k. lardan keyin sodir bo'lishini anglatadi ↔ prä-; ***postglazial*** (≈ nach der Eiszeit) muzlikdan (muz davridan) keyingi □ glazial, ***postnatal*** (≈ nach der Geburt) tuqqandan (tug'ishdan) keyingi, ***postoperativ*** <Blutungen, Komplikationen> speratsiyadan keyingi □ operativ.

128. **prä-** *kammahsul* o'zlashma prefiks, *yozma usl.* — Nimadir o'zakdan anglashilgan vaqt birligi, bosqichi, biror voqea-hodisa va shu k. lardan avval sodir bo'lishini anglatadi ↔ post-; ***pränatal*** (≈vor der Geburt) tuqqandan (tug'ishdan) oldin(gi) □ natal.

129. **pro-** *kammahsul* o'zlashma prefiks *<grek.-lot.>* — O'zakdan anglashilgan narsa, mafkura va shu k. ga ijobiy munosabat bilan ↔ anti-; ***proarabisch*** arabparast, arab mamlakatlari tarafdori bo'lgan, arab mamlakatlari tarafdori... □ arabisch,



***proamerikanisch*** amerikaparast, Amerika tarafdori bo'lgan, Amerika tarafdori... □ amerikanisch, ***prokommunistisch*** prokommunistik, kommunistik g'oya tarafdori □ kommunistisch, ***prowestlich*** g'arbparast, g'arb mamlakatlari tarafdori bo'lgan, g'arb mamlakatlari tarafdori... □ westlich.

130. **pseu·do-** *kammahsul* o'zlashma prefiks *<grek.>, asosan, kamsitish ma'noli* — Kimdir/biror narsa aslida u da'vo qiladigan yoki ko'rinadigan narsa emasligini ifodalash uchun ishlatiladi; ***pseudodemokratisch*** soxta demokratik □ demokratisch, ***pseudomodern*** soxta zamona-viy □ modern, ***pseudowissenschaftlich*** soxta fanga oid; soxta fan.. □ wissenschaftlich.

131. **pu·del-** *kammahsul* yarim prefiks — O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, orttiradi, ta'sirchanligi-ni oshiradi; ***pudelnackt*** *so'z. usl. haz.* yap-yalong'och, onasidan tug'ilgandek □ nackt, ***pudelnärrisch*** *so'z. usl. haz.* juda mamnun, xursand, shod □ närrisch, ***pudelnaß*** *so'z. usl. haz.* suvga tushgan mushukday ho'l, nam □ naß, ***pudelnüchtern*** *so'z. usl. haz.* butunlay hushyor.

## Qq

132. **qua·si-** ['kva:zi-] *kammahsul* yarim prefiks
Sifatlarga yolg'onlik, soxtalik, haqiqiy emaslik ma'nolarini beradi; ***quasibinär*** kvazi(soxta)binar □ binär binarныу ***quasielastisch*** kvazi(soxta)elastik □ elastisch, ***quasiflüssig*** psevdo(soxta)suyuq □ flüssig, ***quasiharmonisch*** kvazi(soxta)-garmonik (uyg'un) □ harmonisch.

133. **quie·tsch-** ['kvi:tʃ-] *kammahsul* yarim prefiks
O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, orttiradi, ta'sirchanligini oshiradi; ***quietschfidel*** *so'z. usl.* juda mamnun [quvnoq, jonli] □ fidel, ***quietschnaß*** *so'z. usl.* butunlay nam □ naß, ***quietschvergnügt*** *so'z. usl.* juda quvnoq [mamnun, shod] □ vergnügt.

## Rr

134. **-reich** *sermahsul* yarim suffiks
O'zakdan anglashilgan narsaga ko'p miqdorda egalik ma'nosini ifodalaydi ↔ -arm; ***fettreich*** yog'ga boy, yog'i ko'p, seryog', sermoy, yog'li □ fett, ***kalorienreich*** kaloriyaga boy, yuqori kaloriyali □ Kalorie *f*, ***vitaminreich*** <eine Kost> vitaminga boy, servitamin □ Vitamin *n*, ***nährstoffreich*** oziq moddalariga boy □ Nähstoff *m*, ***sauerstoffreich*** <ein Boden> kislorodga boy □ Sauerstoff *m*, ***niederschlagsreich*** <eine Gegend> yog'ingarchilikka boy, tez-tez yog'ingarchilik bo'ladigan □ Niederschlag *m*, ***schneereich*** <ein Winter> ko'p qorli, qordan iborat bo'lgan, qor ko'p yoqqan, serqor □ Schnee *m*, ***ideenreich*** <ein Mensch> ko'p g'oyali, g'oyaga boy □ Idee *f*.



135. **rie·sen-** *kammahsul* yarim prefiks
O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, orttiradi, ta'sirchanligini oshiradi; ***riesengroß*** *so'z. usl.* juda katta, ulkan □ groß, ***riesenhoch*** *so'z. usl.* juda [haddan ortiq] baland □ hoch, ***riesenstark*** *so'z. usl.* o'ta kuchli; pahlavonlardek qudratli □ stark.

## Ss

136. **-sam** *kammahsul* suffiks
Fe'l va otlardan sifat yasaydi; ***arbeitsam*** (≈fleißig) mehnatkash, zahmatkash, mehnatsevar □ Arbeit *f*, ***gewaltsam*** (≈ mit Gewalt) zo'rlik (zo'ravonlik) bilan qilingan, amalga oshirilgan, majburiy, zo'raki □ Gewalt *f*, ***mitteilsam*** (≈ gesprächig) gapni (suhbatni) yaxshi ko'radigan, odamga el bo'ladigan, kirishimli, dilkash □ mitteilen, ***ratsam*** (≈empfehlenswert) tavsiyaga arziydigan □ raten, ***schweigsam*** (≈wortkarg) kamgap, kamsuxan, indamas □ schweigen, ***wirksam*** (≈effektiv) effektiv, effektli, samarali, natija (foyda) beradigan, foydali □ wirken.

137. **sau-** *kammahsul* yarim prefiks, *so'z usl.*
O'zakdan anglashilgan belgini kuchaytirish, oshirish uchun qo'llaniladi ≈ sehr, extrem; ***saublöd(e)*** butunlay aqli noqis, miyasi yo'q □ blöde, ***saudumm*** o'ta esi past, kaltafahm, to'mtoq □ dumm, ***saugrob*** o'ta, butunlay qo'pol, to'ng,

to'rs, xunuk □ grob, ***saukalt*** juda sovuq, o'lguday sovuq □ kalt, ***sauwohl*** <sich sauwohl fühlen> juda, rosa, o'ta yaxshi □ wohl.

138. **scheiß-** *kammahsul* yarim prefiks, *ko'p ma'noli, so'z. usl., kamsitish ma'noli*

**1.** O'zakdan anglashilgan belgini kuchaytirish, oshirish uchun qo'llaniladi; ***scheißfrech*** juda, o'lguday dag'al, qo'pol, qo'rs, to'rs □ frech, ***scheißkalt*** juda sovuq, o'lguday sovuq □ kalt.

**2.** Nimadir o'ta mubolag'ali, orttirib ko'rsatilgan deb topilishini ifodalaydi; ***scheißfreundlich*** (≈zu freundlich) xushomad-go'y (tilyog'lama) do'stona □ freundlich, ***scheißnormal*** haddan ziyod odatiy, o'ta normal □ normal.

139. **see·len-, see·lens-** *kammahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, orttiradi, ta'sirchanligini oshiradi; ***seelenfroh*** zavqqa to'lgan, zavqlangan, maftun, qoyil □ froh, ***seelenruhig*** *so'z. usl.* Butunlay (juda) xotirjam □ ruhig, ***seelen(s)gut*** juda marhamatli, rahmli □ gut.

140. **-se·lig** *sermahsul* murakkab suffiks

Inson xususiyatlari, ahvoli, tashqi ko'rinishi, ba'zida jonsiz predmet va hodisalarni ifodalovchi belgi, alomat kabi ma'nolarni bildiradi; ***feindselig*** dushmanlik (dushmanchilik) ruhidagi, dushmanlik ruhi bilan sug'orilgan, zid, ola, adovatli □ Feind *m*, ***gefühlsselig*** ortiq darajada hissiyotga beriladigan,



hassos, ko'ngli bo'sh, tez ta'sirlanuvchan □ Gefühl *n* -s, -ye, ***glückselig*** g'oyat baxtli, shod-xurram, mas'ud, xushbaxt, baxtiyor, baxt-saodatli □ Glück *n*, ***armselig*** kambag'al, nochor □ arm, ***hochselig*** o'lgan, marhum □ hoch, ***holdselig*** juda yaxshi, g'oyat yoqimli; juda chiroyli, go'zal, zebo, ko'rkam □ hold, ***redselig*** sergan, ezma; gapni (suhbatni) yaxshi ko'radigan □ Rede *f*, ***sprachselig*** sergap, ko'p gapiradigan, hech kimga gap bermaydigan □ Sprache *f*.

141. **-sin·nig** *sermahsul* murakkab suffiks

Sifatlarga insonning qobiliyati, ruhiy holatini ifodalovchi belgi, xususiyat ma'nosini beradi; ***frohsinnig*** o'ta quvnoq, xushchaqchaq □ froh, ***geradsinnig*** *esk.* oqko'ngil, ochiq ko'ngil, to'g'ri ko'ngilli, to'g'ri so'zli, sofdil, samimiy □ gerade, ***irrsinnig*** miyasi aynigan, aqldan ozgan, telba, savdoyi, jinni, devona □ irre, ***schwachsinnig*** aqli kam, aqli past (zaif) □ schwach, ***trübsinnig*** mayus, g'amgin □ trüb(e); ***kunstsinnig*** sa'atni tushunuvchi, san'atni his qiluvchi □ Kunst *f*.

142. **split·ter-** *mahsulsiz* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, ta'sirchanligini oshiradi; ***splitternackt*** yap-yalong'och, onasidan tug'ilgandek (yalong'och) □ nackt.

143. **stein-** *kammahsul* yarim prefiks — O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, orttiradi, ta'sirchanligini oshiradi; ***steinalt*** *so'z. usl.* juda eski, qadimdan (almisoqdan, daqqiyunusdan) qolgan, ko'hna □ alt, ***steinarm*** *so'z. usl.* juda kambag'al, qashshoq □ arm, ***steinhart*** *so'z. usl.* toshdek qattiq □ hart, ***steinreich*** *so'z. usl.* juda boy □ reich.

144. **ster·bens-** *kammahsul* yarim prefiks — O'zakdan anglashilgan belgini (hissiy) kuchaytirish, oshirish uchun qo'llaniladi ≈ sehr: ***sterbenselend*** o'lguday ayanch, ayanchli, achinarli, kishini achintiradigan; nochor, ojiz; ro'dapo □ selend, ***sterbenskrank*** o'lguday kasal □ krank, ***sterbenslangweilig*** o'lguday jonga tegadigan, bezor qiladigan, ko'ngilga uradigan, o'lguday zerikarli □ langweilig.

145. **stink-** *kammahsul* yarim prefiks, *so'z. usl., kamsitish ma'noli* — O'zakdan anglashilgan belgini kuchaytirish, oshirish uchun qo'llaniladi ≈ sehr; ***stinkfaul*** o'lguday yalqov, dangasa, tanbal, ishyoqmas □ faul, ***stinkfein*** (≈ übertrieben vornehm) haddan ortiq oqsuyak, najib □ fein, ***stinklangweilig*** o'lguday zerikarli, kishini zeriktiradigan, ziq (diqqat) qiladigan □ langweilig, ***stinknormal*** haddan ziyod odatiy, o'ta normal □ normal, ***stinkreich*** o'ta, haddan ortiq boy □ reich, ***stinkvornehm*** o'lguday aslzoda, haddan ortiq zodagon □ vornehm, ***stinkwütend*** o'lguday qattiq



g'azablangan, juda achchiqlangan, darg'azab, g'azabli, qahrli □ wütend.

146. **stock-** *kammahsul* yarim prefiks — O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytirish uchun ishlatiladi ≈ sehr (stark); ***stock-betrunken*** o'lguday ichgan, oyoqda turaolmaydigan tarzda ichgan □ betrunken, ***stockdumm*** qip-qizil jinni □ dumm, ***stockdunkel*** hech narsani ko'rib bo'lmaydigan, zim-ziyo □ dunkel, ***stockduster*** zulmatdek zimiston □ duster, ***stockfinster*** butunlay qorong'u, zimiston □ finster, ***stockkonservativ*** o'ta konservativ, o'lguday eskilikni yoqlovchi, eskilikka yopishib olgan, konservatizm ruhi bilan sug'orilgan, mutaassib □ konservativ, ***stocknüchtern*** juda aqli raso, o'lguday aklli, idrokli, hushyor, ziyrak □ nüchtern, ***stocktaub*** qulog'i og'ir, toza kar, o'lguday garang □ staub.

147. **sub-** *kammahsul* o'zlashma prefiks *<lot.>* — Muayyan iqlim zonasining to'g'ri yonidagi geografik makonni ifodalash uchun ishlatiladi; ***subarktisch*** subarktikaga oid; subarktikaga xos bo'lgan; subarktik, subarktika... □ arktisch, ***subpolar*** subpolyar (qutbiy) □ polar, ***subtropisch*** <Verhältnisse, ein Klima> subtropik, subtropik... □ tropisch.

148. **-süch·tig** *sermahsul* murakkab — **1.** Inson kasalligi, tibbiy-biologik holatini ifodalaydi; ***gallensüchtig, gallsüchtig*** *tib.* sariq kasaliga oid, xos; sariq kasalligi

| | |
|---|---|
| suffiks, *ko'p ma'noli* | bilan og'riyotgan □ Galle *f* =, -n, ***wassersüchtig*** *tib.* istisqo bilan og'riyotgan, istisqoga oid □ Wasser *n*, ***fallsüchtig*** epilepsiyaga (tutqanoq kasaliga) oid; tutqanoq... □ fallen *vi* (s), ***tobsüchtig*** quturish kasalligiga oid; quturgan □ toben *vi*, ***bleichsüchtig*** kamqonlik (anemiya) kasaliga yo'liqqan; kamqon □ bleich, ***gelbsüchtig*** *tib.* sariq kasaliga oid, xos; sariq kasalligi... □ gelb.<br><br>**2.** Insonning, asosan, salbiy xislatlari, nosog'lom moyilligi kabi ma'nolarni ifodalaydi; ***eroberungssüchtig*** bosqinchi; bosqinchilik ruhidagi, tajovuzkorona; bosqinchilik... □ Eroberung *f* =, -yen, ***geldsüchtig*** manfaatparast, ochko'z (pulga), o'z manfaatini ko'zlaydigan □ Geld *n*, ***ränkesüchtig*** fitna (g'alamis) odamlarga xos bo'lgan, fitnachilikdan (g'alamislikdan) iborat; makkor, hiylakor □ Rank *m* -es, Ränke, ***herrschsüchtig*** so'zini o'tkazishni (buyruk berishni, xo'jayinlik qilishni) yaxshi ko'ruvchi, riyosatparast □ herrschen *vi*, ***raufsüchtig*** urishqoq, jangari □ raufen, ***ichsüchtig*** *bad.* xudbin, egoist □ ich, ***selbstsüchtig*** xudbin, egoist □ selbst. |
| 149. **su·per-** *sermahsul* prefiks, *so'z. usl., ko'pincha yumor yoki kinoyali* | O'zakdan anglashilgan ma'noni odatiy holatdan ortiq, juda yuqori ekanligini bildiradi; ***superbillig*** bahosi (narxi) juda past, o'ta arzon □ billig, ***superfein*** **1** o'ta yupqa; o'ta ingichka; **2** o'ta nozik; o'ta ozg'in, o'ta ingichka; **3** o'ta tor, nozik, ingichka; **4** o'ta nafis, chiroyli; **5** ton nozik, o'ta nafis, latif, yoqimli; **6** juda nozik, nazokatli, odobli, xushmuomalali □ fein, ***superfleißig*** juda tirishqoq, g'ayratchan, serhafsala, serharakat, quntli □ fleißig, ***superleicht*** o'ta yengil, toshi yengil, tosh bosmaydigan □ leicht, ***supermodern*** o'ta zamonaviy, urfda □ modern, ***superreich*** o'ta boy □ reich, ***superschlau*** o'ta ustomon, quv, ayyor, mug'ombir; firibgar, hiylagar, makkor □ schlau, ***supersparsam*** o'ta tejamkor □ sparsam. |



**Tt**

| | |
|---|---|
| 150. **-tel** *son sifat yasovchi, juda sermahsul* yarim suffiks | Kasr sonlar yasaydi; ***drittel*** (≈ $^1/_3$) uchdan bir (qism, hissa) □ drei, ***viertel*** to'rtdan bir (qism, hissa), chorak □ vier, ***fünftel*** beshdan bir (qism, hissa) □ fünf, ***sechstel*** oltidan bir (qism, hissa) □ sechs, ***siebtel*** ***ye***ttidan bir (qism, hissa) □ sieben, ***achtel*** sakkizdan bir, nimchorak □ acht, ***neuntel*** to'qqizdan bir □ neun, ***zehntel*** o'ndan bir □ zehn, ***elftel*** o'n birdan bir □ elf, ***zwölftel*** o'n ikkidan bir □ zwölf, ***dreizehntel*** (= $^1/_{13}$) o'n uchdan bir □ dreizehn, ***zwanzigstel*** yigirmadan bir □ zwanzig, ***einundzwanzigstel*** (= $^1/_{21}$) yigirma birdan bir □ einundzwanzig, ***hundertstel*** yuzdan bir □ hundert, ***tausendstel*** mingdan bir □ tausend: *ein viertel Pfund/* **chorak funt** , *drei achtel Liter/* **sakkizdan uch qism litr** , *elf Zwanzigstel/* **yigirmadan o'n bir qism.** |

151. **te·le-** *mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<grek.>*

O'zakdan anglashilgan ma'noning masofadan turib bajarilishini bildiradi; ***tele-mechanisch*** telemexanik, ***telegen*** teledastur uchun yaroqli.

152. **ther·mo-** [termo-] *mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<grek.>*

Sifatlarga issiqlik va harorat bilan bog'liq sifatlarning ma'nosini beradi; ***thermoelektrisch*** termoelektrik, termo-elektrga oid □ elektrisch, ***thermogravimetrisch*** termogravimetrik □ gravimetrisch, ***thermo-magnetisch*** termomagnitga oid □ magnetisch, ***thermonuklear*** termoyadroga oid; termoyadro... □ nuklear.

153. **tief-** *sermahsul* yarim prefiks, *ko'p ma'noli*

**1.** O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, ta'sirchanligini oshiradi; ***tiefernst*** juda (o'ta) jiddiy; tantanali, tantanavor □ ernst, ***tieftraurig*** juda g'amgin, qayg'uli □ traurig, ***tiefbewegt*** o'ta hayajon-langan, to'lqinlangan, hayajonli, tashvishli, iztirobli □ bewegt, ***tiefgreifend*** chuqur, teran □ greifend.

**2.** Rangni anglatuvchi sifatlarni to'q rangda ekanligini bildiradi; ***tiefblau*** to'q ko'k, ***riefrot*** to'q qizil.

154. **tod-** *urg'uli, kammahsul* yarim prefiks, *so'z. usl.*

O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, ta'sirchanligini oshiradi (juda, o'ta ≈ äußerst, sehr); ***todernst*** <ein Gesicht> juda jiddiy, o'ta bama'ni, mulohazali □ ernst, ***todhungrig*** juda och, ochiqqan, och qolgan □ hungrig, ***todkrank*** juda og'ir kasal, bemor □ krank, ***todlangweilig*** <ein Film> juda zerikarli □ langweilig, ***todmüde*** <ins Bett fallen> o'lguday charchagan, toliqqan □ müde, ***todschick*** <Kleidung> hamma havas qiladigan (qoyil qoladigan); juda soz, ajoyib, zo'r □ schick, ***todsicher*** <etwas todsicher wissen> shubhaga o'rin qoldir-maydigan, shak-shubhasiz, muqarrar, o'ta qat'iy, aniq □ sicher, ***todtraurig*** juda g'amli, g'amgin, qayg'uli, xafa □ traurig, ***todunglück-lich*** butunlay bebaxt, badbaxt, baxtsiz, baxti qora, tolei past □ unglücklich.



155. **trans-** *mahsulsiz* o'zlashma prefiks *<lot.>*

Sifatlarga biror narsaning orqasida, uning boshqa tomonida joylashganlik yoki u orqali o'tib ketish ma'nosini beradi; ***transalpin(isch)*** transalpin, Alp tog'lari-ning narigi tomonida (*Rimdan*) □ alpin, ***transatlantisch*** transatlantik, dengiz ortidan kelgan (keltirilgan); dengiz ortidagi; dengiz orti... □ atlantisch, ***transkontinental*** transkontinental, konti-nentlar orasidagi aloqaga (qatnovga) oid □ kontinental, ***translunarisch*** *astr.* Oyning boshqa tomonida □ lunarisch, ***transversal*** ko'ndalang, ko'ndalangiga (eniga) tushgan, ko'ndalang qo'yilgan.

156. **-tüch·tig** *kammahsul* yarim suffiks

O'zakdan anglashilgan ma'noga yaroqli, uni bajarishga imkoniyat, qobiliyatga ega; ***fahrtüchtig*** <ein Auto> yuradigan, haydasa bo'ladigan, ***funktionstüchtig*** <eine Maschine> ishga qobiliyatli, ishga layoqatli, ishlay oladigan □ Funktion *f*,

***geschäftstüchtig*** ishning ko'zini biladigan, ishchan, ishbilarmon □ Geschäft *n*, ***lebenstüchtig*** <ein Mensch> gullab yashnaydigan. rivoj topadigan, barivoj □ Leben *n*, ***seetüchtig*** <ein Schiff> suzuvchi, yuzuvchi; suzib (qalqib) yuruvchi □ See *f*, ***verkehrstüchtig*** <ein Auto> harakatlanuvchi, yuradigan, haydashga yaroqli □ Verkehr *m*.

## Uu

157. **ü-ber-** *urg'uli, kammahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'no mubolag'ali yoki o'ta keskin ekanligini ifodalaydi; ***überängstlich*** o'ta, butunlay, o'lguday qo'rqoq, yuraksiz □ ängstlich, ***übereifrig*** o'ta, butunlay, o'lguday qunt (g'ayrat) bilan ishlaydigan, tirishqoq, g'ayratli □ eifrig, ***überempfindlich*** o'ta, butunlay, o'lguday tasirchan, o'ta tasirchan; nozik, nozik tabiatli; hissiyotga beriluvchan □ empfindlich, ***überkorrekt*** o'ta, butunlay boadab, odobli, xushmuomala, xushfe'l, sipo □ korrekt, ***überpünktlich*** o'ta ishni puxta va o'z vaqtida bajaradigan; juda aniq, o'z vaqtida □ pünktlich.

158. **ult-ra-** *urg'uli, kammahsul* o'zlashma prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'no mubolag'ali yoki o'ta keskin ekanligini ifodalaydi; ***ultra-modern*** o'ta zamonaviy □ modern, ***ultrarechts*** butunlay o'ngga □ rechts.



159. **un-** *urg'uli, sermahsul* prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'noga qarama-qarshi ma'noni ifodalaydi; ***echt*** ↔ ***unecht*** <Schmuck> sun'iy, yasama, soxta, qalbaki □ echt, ***sicher*** ↔ ***unsicher*** <eine Sache> bexatar (xavfsiz) deb bo'lmaydigan, xatardan holi emas, o'ziga yarasha xatarli, xavfli, tahlikali □ sicher, ***abhängig*** ↔ ***unabhängig*** <ein Staat> erki o'zida bo'lgan, qaram bo'lmagan, mustaqil, erkin, hur, muxtor □ abhängig, ***annehmbar*** ↔ ***unannehmbar*** <eine Forderung> yo'l qo'yib bo'lmaydigan, noma'qul □ annehmbar, ***appetitlich*** ↔ ***unappetitlich*** <eine Speise> ishtahani qo'zg'atmaydigan, ma'zasiz, yoqimsiz □ appetitisch, ***fair*** ↔ ***unfair*** <ein Spieler> vijdoni (insofi, diyonati) yo'q, vijdonsiz, insofsiz, diyonatsiz, noinsof □ fair, ***populär*** ↔ ***unpopulär*** <eine Maßnahme> ommabop emas, hammabop emas □ populär, ***bedeutend*** ↔ ***unbedeutend*** <ein Schriftsteller> ahamiyati kam, ko'zga tashlanib turmaydigan, e'tiborga noliyiq □ bedeutend.

160. **unter-** *kammahsul* yarim prefiks, *ko'p ma'noli*

**1.** Sifatdoshlardan hosil qilingan sifatlarga normaga yetmaganlik, undan pastda ekanlik ma'nosini beradi; ***unterbevölkert*** aholisi kam, siyrak □ bevölkert, ***unterentwickelt*** qisman rivojlangan □ entwickelt, ***unterernährt*** ozib (oriqlab) ketgan, ozib-to'zgan, oriq-turiq, quruq salla, ochlikdan qiynalayotgan □ ernährt.

**2.** Nimaningdir ostida joylashganlik ma'nosini bildiradi; ***unterglazial*** *geol.*

muz(lik)lar ostidagi □ glazial, ***unterirdisch*** yer ostidagi, yer ostida joylashgan □ irdisch.

161. **ur-** *sermahsul* prefiks, *ko'p ma'noli*

**1.** O'zakdan anglashilgan ma'noni qadimiyligi, azaliyligini bildiradi; ***uraltertümlich*** yozma tarix yuzaga kelmasdan oldin bo'lgan, totarixiy davrga oid □ altertümlich, ***uranfänglich*** dastlabki □ anfänglich, ***urdeutsch*** asl nemischa *(mas. so'z)* □ deutsch, ***ureigen*** azalgi, qadimgi; burungi; qadimdan qolgan; o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'ziga xos □ eigen, ***urgeschichtlich*** ibtidoiy, qadimgi, eng burungi □ geschichtlich.

**2.** O'zakdan anglashilgan ma'noni kuchaytiradi; ***uralt*** juda eski, qadimdan (almisoqdan, daqqiyunusdan) qolgan, ko'hna □ alt, ***uranstandig*** *neol.* juda vijdonli, insofli, andishali, nomusli, to'g'ri □ anständig, ***urewig*** *so'z. usl.* azaliy va abadiy; abadiy, mangu, juda boqiy □ ewig, ***urgesund*** sog'u-salomat □ gesund, ***urkomisch*** juda [o'lguday] kulguli □ komisch.

## Vv

162. **voll-** [?-] *urg'uli, kammahsul* yarim prefiks, *darajasiz*

To'liq, butunlay yoki juda ko'p miqdorda kabi ma'nolarni ifodalaydi; ***vollautomatisch*** to'la avtomatik ravishda ishlaydigan, avtomatik, avtomat □ automatisch, ***vollelastisch*** <ein Material> to'liq elastik, butunlay egiluvchan, qayishqoq; cho'ziladigan, cho'ziluvchan □



elastisch, ***vollklimatisiert*** <ein Hotelzimmer> harorati to'liq ravishda sun'iy boshqariladigan uskunalar o'rnatilgan □ klimatisiert, ***vollmechanisiert*** <Landwirtschaft> to'liq mexanizatsiyalashtirilgan, mashinalashtiril-gan; butunlay mexanizatsiyalashgan, mashina-lashgan □ mechanisiert.

163. **vor-**[?-] *sermahsul* yarim prefiks

Sifatlarga biror davr, zamondan oldingi vaqtga tegishlilik ma'nosini beradi; ***vorchristlich*** miloddan avvalgi □ christlich, ***vorehelich*** nikohdan oldingi, nikohdan oldin bo'lgan □ ehelich, ***voreiszeitlich*** *geol.* muzlik davridan oldin □ eiszeitlich, ***vorerwähnt*** yuqorida eslatib o'tilgan, zikr qilingan, mazkur □ erwähnt, ***vorgenannt*** yuqorida eslatib o'tilgan, zikr qilingan, mazkur □ genannt.

## Ww

164. **-wei-se** *ko'pincha ravish, sermahsul* yarim suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** Nimadir o'zakdan anglashilgan ma'no tarzida, holida sodir bo'lishi yoki bajarilishini ifodalaydi; ***aushilfsweise*** *irgendwo arbeiten/* **vaqtinchalik, kimning-dir o'rniga** *qaerdadir ishlamoq, etwas* ***ausnahmsweise*** *tun dürfen/ nimanidir* **istis'no tarzda** *bajarishga ruxsat bo'lmoq, etwas* ***auszugsweise*** *zitieren/ nimanidir* **tanlab, oralatib** *sitata qilmoq, sitata keltirmoq, etwas* ***gerüchteweise*** *hören/ nimanidir* **mish-mishlardan** *eshitmoq, jemandem etwas* ***leihweise***

*geben*/ *nimanidir* **qarzga, qarz tariqasida** *bermoq, etwas* ***probeweise*** *abonnieren*/ *nimagadir* **sinov tarzida** *obuna bo'lmoq, etwas* ***versuchsweise*** *einführen*/ *nimanidir* **sinov, tajriba tarzda** *import qilmoq, etwas* ***zwangsweise*** *erwirken*/ *nimanidir* **majburan** *urinmoq, intilmoq.*

2. O'zakdan anglashilgan ma'noga teng o'lchov-miqdorni ifodalaydi; *etwas* ***dutzendweise/ stückweise/ zentnerweise*** *verkaufen*/ *nimanidir* **o'ntalab/ donalab/sentnerlab** sotmoq, *etwas* ***eimerweise/literweise*** *trinken*/ *nimanidir* **chelaklab (paqirlab)/litrlab** ichmoq, *etwas kommt* ***haufenweise/massenweise*** *vor*/ *nimadir* **to'p-to'p, uyum bo'lib/ommaviy** uchramoq, *etwas* ***kiloweise/pfundweise*** *essen*/ *nimanidir* **kilolab, funtlab** yemoq, *etwas* ***portionsweise*** *servieren*/ *nimanidir* **porsalab** *(dasturxonga) tortmoq,* ***schrittweise/ zentimeterweise*** *vorankommen*/ **qadamlab/ santimetrlab** *oldinga harakat qilmoq, etwas steigt* ***stufenweise*** *an*/ *nimadir* ***darajama-daraja, tadrijiy*** *ko'tarilmoq,* ***stundenweise*** *irgendwo arbeiten*/ *qaerdadair* **soatlab** *ishlamoq.*

3. Hol gap vazifasida kelib ma'lum situatsiyani baholash, muhokama qilish mazmunini ifodalaydi; ***bedauerlicherweise*** *nicht kommen können*/ ***baxtga qarshi*** *kela olmaslik,* ***bezeichnenderweise*** *schon weg sein*/ ***ko'rinishidan*** *allaqachon ketib qolgan bo'lmoq, etwas*



***dummerweise/törichterweise*** *vergessen*/ *nimanidir* ***ahmoqlarcha/jinni-larcha*** *unutmoq,* ***erfreulicherweise/ glücklicherweise*** *nicht verletzt sein*/ ***baxtimizga/omad kelib*** *jarohat olmaslik,* ***seltsamerweise/ merkwürdigerweise*** *verschwun-den sein*/ ***ajablanarli/g'alati tarzda*** *yo'qolib qolmoq, etwas* ***möglicherweise*** *vergessen haben*/ *nimanidir* ***imkon darajada unutgan bo'lmoq,*** *etwas* ***notwendigerweise*** *reparieren*/ *nimanidir* ***majburan*** *tuzatmoq/ ta'mirlamoq, etwas* ***unbegreiflicherweise*** *behaupten*/ *nimanidir* ***tushunarsiz tarzda*** *tasdiqlamoq, etwas* ***überflüssigerweise*** *hinzufügen*/ *nimanidir* ***behudaga*** *qo'shimcha qilmoq,* ***vernünftigerweise*** *nachgeben*/ ***oqilona tarzda*** *voz kechmoq.*

165. **-wert** *kammahsul yarim suffiks*

O'zakdan anglashilgan narsani bajarishga arziydigan, uni amalga oshirish o'zini oqlashini ifodalaydi; ***bewundernswert*** <Geduld; eine Leistung> ajoyib, ajablanarli, tong qolarli □ bewundern, ***empfehlenswert*** <ein Buch, ein Rezept> tavsiya qilishga arziydigan □ empfehlen, ***erwähnenswert*** <eine Anekdote> aytishga arziydigan □ erwähnen, ***lesenswert*** <ein Buch> o'qishli, o'qishga arziydigan □ lesen, ***nachahmenswert*** <eine Tat> taqlid qilishga arziydigan □ nachahmen, ***sehenswert*** <ein Film, eine Stadt> ko'rishga arziydigan □ sehen, ***wissenswert***

<eine Tatsache> bilishga arziydigan □ wissen.

166. **-wid·rig** *darajasiz, kammahsul* yarim suffiks

Nimadir qonunga qarshi, biror norma, qoida va shu kabilarga mos kelmasligini anglatadi; ***befehlswidrig*** <Verhalten> buyruqqa qarshi, zid □ Befehl *m*, ***formwidrig*** <ein Protokoll> shaklga mos kelmaydigan, zid □ Form *f*, ***gesetzwidrig/rechtswidrig*** <eine Handlung> qonunga qarshi, zid □ Gesetz, *n* Recht *n*, ***naturwidrig*** <ein Leben> g'ayritabiiy □ Natur *f*, ***normwidrig*** <Sprachgebrauch> anomal, normadan chetga chiqqan, anormal, nonormal □ Norm *f*, ***ordnungswidrig*** <Verhalten im Verkehr> tartib-intizomga qarshi, zid □ Ordnung *f*, ***protokollwidrig*** <Auftreten> qaror/protokolga zid □ Protokoll *n*, ***regelwidrig*** <Spiel, eine Konstruktion> qoidaga zid □ Regel *f*, ***sinnwidrig*** <eine Übersetzung> mazmunga mos emas □ Sinn *m*, ***sittenwidrig*** <Verhalten> odatlarga zid, qarshi □ Sitte *f*, ***verfassungswidrig*** <ein Beschluss> qomus/konstitutsiyaga zid □ Verfassung *f*, ***verkehrswidrig*** <Verhalten> yo'l harakati qoidalariga qarshi, zid □ Verkehr *m*, ***vertragswidrig*** <eine Handlung> shartnoma/ kelishuvga zid □ Vertrag *m*.

167. **wohl-** *(ko'pincha sifatdosh bilan birga), urg'uli, kammahsul* murakkab sifatning birinchi chastotali komponenti

O'zakdan anglashilgan ma'no (nisbatan) ko'p miqdorda yoki maqul (kutilgan) darajada mavjudligini ifodalaydi; ***wohlerzogen*** <ein Kind> yaxshi tarbiya



ko'rgan, tarbiyali, odobli, xushaxloq □ erzogen, ***wohlgeformt*** <Beine, eine Figur> xushbichim, kelishgan □ geformt, ***wohlgesinnt*** <jemandem wohlgesinnt sein (≈jemandem freundlich gegenüberstehen)> yaxshi (ezgu) niyatli, niyati xolis; yaxshi (ezgu) niyat bilan qilingan, beg'araz □ gesinnt, ***wohlklingend*** <eine Stimme> quloqqa yoqadigan, yoqimli, xushovoz, xushohang, ohangdor □ klingend, ***wohlproportioniert*** <eine Figur, ein Körper> hajmiga yoki hissasiga yaxshi mos keladigan, mos, mutanosib □ proportioniert, ***wohlriechend*** <ein Parfüm> xush isli, xushbo'y, muattar □ reichend, ***wohlschmeckend*** <ein Gericht> mazali, lazzatli, totli, shirin, xushxo'r □ schmeckend.

168. **wun·der-** *kammahsul* yarim prefiks

O'zakdan anglashilgan ma'no, belgini kuchaytiradi, ta'sirchanligini oshiradi ≈ äußerst; ***wunderhübsch*** juda chiroyli, go'zal, zebo, ko'rkam; dilbar, ajoyib □ hübsch, ***wunderschön*** dilbar, dilrabo, jozibali, juda go'zal, mastona, maftun qiladigan, fusunkor, afsunkor, fatonatli, fatton □ schön.

169. **-wür·dig** *kammahsul* yarim suffiks, *ko'p ma'noli*

**1.** Tilga olingan predmet, shaxs nimanidir bajarsa, o'shanga arziydigan bo'lar edi; ***auszeichnungswürdig*** <eine Leistung, ein Werk> mukofatga arzigulik(dek) □ Auszeichnung *f*, ***erhaltungswürdig*** <ein Gebäude> saqlab qolishga arzigulik(day) □ Erhaltung *f*, ***förderungswürdig*** <ein Projekt, ein Student> moliyaviy qo'llab-

quvvatlashga arzigulik(day) □ Förderung f, *verehrungs-würdig* <eine Persönlichkeit> hurmatga arzigulik(dek) □ Verehrung f.

**2.** O'zakdan anglashilgan ma'no o'rinli, haqli, to'g'ri ekanligini anglatadi; ***kritikwürdig*** <jemandes Auftreten, jemandes Verhalten> tanqidga o'rinli □ Kritik *f*, ***verabscheuungswürdig*** <ein Verbrechen> jirkantiradigan, nafratni qo'zg'aydigan, juda xunuk, juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz □ Verabscheuung *f*.

## Zz

| | | |
|---|---|---|
| 170. | **zer-** *mahsulsiz* prefiks, *kuchsiz fe'llarga sifatdosh* II *shaklida qo'shiladigan* -t *qo'shimchasi bilan birga qo'llanadi* | Sifatlarga eskirganlik, shuningdek, notekis, qing'ir-qiyshiq yuza ma'nosini beradi; ***zerlumpt*** 1) ust-boshi yirtilib ketgan, juldur kiyimli 2) yirtiq, yirtilgan, yirtilib ketgan, ilma-teshik, uvada □ Lumpen *f*, ***zerschluchtet*** *geol.* jarga, jarlikka oid; ko'plab daralar bilan □ Schlucht *f*. |



## FOYDALANILGAN LEKSIKOGRAFIK ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Langenscheidt Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Neubearbeitung. Hg. von D.Göötz/G. Haensch/H. Wellmann. Berlin u.a.: Langenscheidt, 2008.

2. Wahrig Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache., Gütersloh u.a.: Von R. Wahrig-Burfeind, 2008.

3. Wörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Hg. von G. Kempcke unter Mitarbeit von B. Seelig/B. Wolf/E. Tellenbach u.a. Berlin u.a. 2000.

4. Stepanova M.D., Slovar slovoobrazovatelnых elementov nemeskogo yazыka. Moskva: Russkiy yazыk, 1979.

5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomli. (A. Madvalieva tahriri ostida).-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2005.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

## MUNDARIJA


ВВЕДЕНИЕ.................................................. 5
ИНСТРУКЦИЯ ПО ПОЛЬЗОВАНИЮ СЛОВАРЕМ.................................................. 6
СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМЫХ СОКРАЩЕНИЙ.................................................. 9
ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ.................................................. 10
Aa.................................................. 10
Bb.................................................. 19
Cc.................................................. 23
Dd.................................................. 23
Ee.................................................. 24
Ff.................................................. 29
Gg.................................................. 33
Hh.................................................. 38
Ii.................................................. 44
Kk.................................................. 49
Ll.................................................. 52
Mm.................................................. 57
Nn.................................................. 62
Oo.................................................. 63
Pp.................................................. 64
Qq.................................................. 67
Rr.................................................. 68
Ss.................................................. 69
Tt.................................................. 75
Uu.................................................. 78
Vv.................................................. 80
Ww.................................................. 81
Zz.................................................. 86
БИБЛИОГРАФИЯ.................................................. 87
СОДЕРЖАНИЕ.................................................. 88





INTRODUCTION.................................................. 5
INSTRUCTIONS FOR USING THE DICTIONARY.................................................. 6
LIST OF USED ABBREVIATIONS.................................................. 9
MAIN PART.................................................. 10
Aa.................................................. 10
Bb.................................................. 19
Cc.................................................. 23
Dd.................................................. 23
Ee.................................................. 24
Ff.................................................. 29
Gg.................................................. 33
Hh.................................................. 38
Ii.................................................. 44
Kk.................................................. 49
Ll.................................................. 52
Mm.................................................. 57
Nn.................................................. 62
Oo.................................................. 63
Pp.................................................. 64
Qq.................................................. 67
Rr.................................................. 68
Ss.................................................. 69
Tt.................................................. 75
Uu.................................................. 78
Vv.................................................. 80
Ww.................................................. 81
Zz.................................................. 86
LIST OF USED LEXICOGRAPHIC REFERENCES.................................................. 87
CONTENTS.................................................. 88

**Z.I. SANAKULOV, SH.D. RAZAKOVA**

**LEKSIKOLOGIYA**
**(nemischa-o'zbekcha sifat yasovchi affikslar o'quv lug'ati)**
**o'quv qo'llanma**


| | |
|---|---|
| Muharrir: | X. Taxirov |
| Tehnik muharrir: | S. Melikuziva |
| Musahhih: | M. Yunusova |
| Sahifalovchi: | A.Ziyamuhamedov |

**Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й**
Bichimi 60x84 1/16. "Cambria" garniturasi, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 5,75.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 1596117

**City of book MCHJda chop etildi.**




**QAYDLAR UCHUN**